

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYAVIY MENEJMENT FAKULTETI

«MENEJMENT VA MARKETING» KAFEDRASI

SUYUNOV BOBOYOR BAHRIDDIN O‘G‘LI

**«XUDUDLARDA FUNKTSIONAL BOSHQARUV ORGANLARINING
XUSUSIYATLARI»**

**5340200 -Menejment (Ishlab chiqarish) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr
darajasini olish uchun yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Himoyaga qo‘yiladi”

**Fakultet dekani
i.f.n. dots. O.Astankulov**

**Kafedra mudiri
i.f.n. dots. X.Asatullaev**

«__» _____ 2016yil

«__» _____ 2016 yil

Ilmiy rahbar:

**Katta o‘qt. Z. Musayeva _____
«__» _____ 2016 yil**

Toshkent-2016

MUNDARIJA

KIRISH.....

I BOB. HUDUDLARDA FUNKSIONAL BOSHQARUV ORGANLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

- 1.1 Hududiy boshqaruv tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari. .
- 1.2 O'zbekiston Respublikasida mahalliy va hududiy boshqaruv organlari roli. . .
- 1.3 Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida boshqaruv organlarining funksional vazifalarini o'ziga xos xususiyatlar
- Birinchi bob bo'yicha xulosa

II BOB. FUNKSIONAL BOSHQARUV ORGANLARI FAOLIYATINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI. (DENOV TUMANI HOKIMIYATI MISOLIDA).....

- 2.1 Surxondaryo viloyati Denov tumani hokimligining boshqaruv tashkiliy tuzilmasi va funksional vazifalari tahlili.. ..
- 2.2 Surxondaryo viloyati Denov tumanining ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili.
- 2.3 Surxondaryo viloyati Denov tumanida 2015 yil davomida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida amalga oshirilgan ijtimoiy – iqtisodiy islohatlar tahlili .
- Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITDA FUNKSIONAL BOSHQARUV ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

- 3.1 Funksional boshqaruv organlar faoliyatining samarali boshqarishda tashkiliy tuzilmalarni rivojlantirish usullari.
- 3.2 Boshqaruv organlari faoliyatida tashkiliy tuzilmalarni loyixalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.
- Uchinchi bob bo'yicha xulosa

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining mavzuning dolzarbligi. Har qanday ijtimoiy mehnat jarayoni xoh u kichik doirada, xoh o katta doirada bo'lsin boshqaruvni talab etadi. Boshqaruvning tashkiliy strukturasini funksional samaradorligini oshirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida u bozor munosabatlari takomillashuvining asosiy kategoriyalaridan biriga aylanib, bozor ishtirokchilari uchun muvaffaqiyatli faoliyat yuritish yo'llarini ko'rsatib beradi.

Prezidentimiz I.A.Karimov "Mamlakatimizda qabul qilingan qator qonunlar va qonunchilik hujjatlari huquqni muhofaza qiluvchi, nazorat organlari va ma'muriy tuzilmalarning tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvini bartaraf etish uchun qat'iy tartib o'rnatish va ana shu idoralarning rahbarlari hamda mansabdor shaxslarining javobgarligini oshirish bo'yicha katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari bilan o'zaro munosabatlarda tadbirkorlar huquqlarining ustuvorligi tamoyili joriy etildi."¹ deb ta'kidlaydilar.

O'zbekistonda boshqaruv funksiyasining xususiyatlari, mohiyati, nazariyasi va xo'jalik sub'ektlari faoliyatida bajaradigan vazifasiga katta e'tibor berilib, turli sohalar, yo'nalishlar bo'yicha uni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan mexanizmlari hayotga tatbiq qilinmoqda. Bu jarayonda esa ularning yanada yaxshiroq ishlashi hamda samarali faoliyat olib borishida mamlakatning funksional boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan qator vazifalar va chora-tadbirlar asosiy dasturil amallardan biri bo'lib xizmat qilmog'i lozim. Bu esa o'z navbatida boshqaruv organlarining bozor iqtisodiyotini mutanosibligini tartibga solib turishda muhim zaruriy vazifalarni amalga oshiruvchi ekanligidan yana bir bor dalolat beradi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. Surxondaryo viloyati Denov tumani hokimiyati faoliyati va uni samarali boshqarish xususiyatlari.

¹ I.A.Karimov. Mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. 2016 yil 17 yanvar. "Xalq so'zi" gazetasi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib, mahalliy va xududiy organlarining funksional vazifalari va ularning boshqaruviga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, hamda hokimiyatning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Boshqaruv organlarining funksional vazifalari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish nazarda tutilgan:

- Boshqaruv organlarining funksional vazifalari va o'ziga xos xususiyatlarini nazariy jihatlarini o'rganish;

- Mahalliy boshqaruv organlarning faoliyati hamda funksionla vazifalarini organish;

- Hududiy boshqaruv organlarining faoliyati hamda ularning funksional vazifalarini o'rganish;

- Surxondaryo viloyati Denov tumani hokimligining boshqaruv jarayoni hamda uning funksional vazifalarini o'rganish;

- Surxondaryo viloyati Denov tumani hokimligining boshqaruv jarayonidagi ishtirokini izohlab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini o'rganish;

- Mamlakatimiz boshqaruv organlarini tashkiliy boshqaruv organlarini tashkiliy strukturasi tahlil qilish.

Mavzuning nazariy-amaliy ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Prizedenti I.Karimovning milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish bo'yicha ilgari surgan nazariy qarashlari, ilmiy risolalari, boshqaruv organlari faoliyatiga oid Prizedent farmonlari va qarorlari, shu jumladan, boshqaruv organlarining funksional vazifalarining o'ziga xos xususiyatlari mavzusi yuzasidan bevosita va bilvosita shug'ullanayotgan xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy – nazariy qarashlari.

BMI tarkibining qisqacha tavsifi. Bitiruv malakaviy ishida: kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. BMI matni 81 betni tashkil etib, unda 7 ta jadval, 17 ta rasm, keltirilgan.

I BOB. HUHURLARDA FUNKSIONAL BOSHQARUV ORGANLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Hududiy boshqaruv tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida samarali boshqaruv jarayonini amalga oshirishda boshqaruv organlarining o'rni va ahamiyati g'oyatda beqiyosdir. Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va korxonalarning ish jarayonini real tahlil qilish hamda ular faoliyatini nazorat qilish orqali tartibga solishda boshqaruv organlari tomonidan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Mamlakatimizda qabul qilingan qator qonunlar va qonunchilik hujjatlari huquqni muhofaza qiluvchi, nazorat organlari va ma'muriy tuzilmalarning tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvini bartaraf etish uchun qat'iy tartib o'rnatish va ana shu idoralarning rahbarlari hamda mansabdor shaxslarining javobgarligini oshirish bo'yicha katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari bilan o'zaro munosabatlarda tadbirkorlar huquqlarining ustuvorligi tamoyili joriy etildi."²

Yuqoridagi fikrlar ham boshqaruv jarayonini samarali tashkil etishda boshqaruv organlarining tashkiliy-huquqiy mas'uliyatini va javobgarligini ko'rsatib turibdi.

Ma'lumki, iqtisodiy isloxlarning pirovard natijalari uni amalga oshirish ob'ektidan qat'iy nazar respublika, tarmoq, shaharlar darajasida namoyon bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqarishning tarmoq tizimidan funktsional tizimiga o'tishi maxalliy boshqarish organlari yanada oshirishni taqozo etadi.

1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyaning 21 bobi – «Maxalliy davlat hokimiyati asoslari» deb ataladi. Shu bobga binoan 1993 yil 2 sentabrda O'zbekiston Oliy Majlisi «Maxalliy davlat hokimiyati to'grisida» va «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'grisida» ikki muhim qonun ni

² I.A.Karimov. Mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. 2016 yil 17 yanvar. "Xalq so'zi" gazetasi.

qabul qildi. Shu xujjatlar asosida mamlakatimizda oldin amal qilib kelgan uch buginli maxalliy boshqarish organlari tizim o'rniga, ya'ni:

- yuqori bo'gin – Viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashi;
- o'rta bo'gin – Tuman, shahar xalq deputatlari;
- quyi bo'gin – qishloq, poselka, ovul, xalq deputatlari kengashlari o'rniga ikki bo'ginli tizimi vujudga keldi.

Respublikada tumanlarning ikki turi:

- viloyatlar tarkibiga kiruvchi tumanlar;
- shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlar.

Shaharlarning esa uch turi:

- tumanga bo'ysunuvchi shaharlar;
- viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar;
- respublikaga bo'ysunuvchi shaharlar mavjud.

Maxalliy vakillik orgnalari ikki bo'ginli tizimining o'rnatilishi cheklanilmay, mavjud hududiy tuzilishlarning ham ba'zilarida mahalliy vakillik orgnalari tuzilmaydigan bo'ldi. Xususan, Konstitutsiya va qonun shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarda va tumanga buysinuvchi shaharlarda vakillik organlarining tuzilishini nazarda tutmaydi.

Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda xalq deputatlari kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlari bo'lib xisoblanadilar.

Viloyat, tuman, shahar hokimi viloyat, tuman va shaharning oliy mansabdor shaxsi bo'lib, ayni bir vaqtda, tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi.

Hududiy boshqaruv deganda, biron bir hudud, mamlakatda boshqaruvchi mas'ul organlar tomonidan olib borilayotgan boshqaruv jarayoni tushuniladi.

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish xalq hokimiyatining mustaqil shakli ekanligdan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida faqat mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari uchun eng muhim huquqiy qoidalar belgilangan. Mazkur moddaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Asosiy qonunining qoidalarini mufasallashtiruvchi va

muayyanlashtiruvchi huquq me'yorlari ifodalangan qonunlar yoki qonun hujjatlari qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlarining mahalliy o'zini o'zi boshqarishning asoslarini bevosita mustahkamlaydigan huquq me'yorlari:

- fundamental, umumlashtiruvchi xususiyatga;

- me'yoriy hamda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilinadigan xujjatlarga nisbatan ustuvor xususiyatga ega;

- ularga aniqlik va qat'iylik;

- umum e'tirof etilganlik;

- qisqa va lo'ndalik;

- barqarorlik;

- surunkali amal qilish xos.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish asoslarini konstitutsiya, qonunlarda ifodalangan va aholining mahalliy aqamiyatga molik vazifalarni qal qilish soqasidagi faoliyatining barcha tuzilmalar uchun eng muqim, umumiy xududiy, huquqiy, moliya-iqtisodiy asoslarini mustaqkamlovchi huquq me'yorlari majmui deb ta'riflash mumkin.

Huquqiy davlat printsiplariga muvofiq, mahalliy o'zini o'zi boshqarishni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar mufassal tartibga solingan taqdirdagina, aholi mahalliy o'zini o'zi boshqarish masalalarini samarali hal qilish sohasida mustaqil faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarishning asosini:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;

- O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa qonun xujjatlari;

- Mahalliy hokimiyat organlarining xujjatlari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobi mahalliy davlat hokimiyati asoslari masalalariga baqishlangan. 99-moddada viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shushingdek shahar tarkibiga

kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan halq deputatlari Kengashlari hokimiyatining vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni qal echishlari qayd etilgan. Joylarda hokimiyatning taqimlanishi printsiptiga asosan ikki mahalliy hokimiyat organi: vakilik va ijro etuvchi organlar faoliyat ko'rsatadi. Ular o'z faolitini yakkaboshchilik asosida amalga oshiradilar. Hokimlik instituti milliy an'analardan kelib chiqib tashkil etilgan. Zotan, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kuchli vakillik va ijro etuvchi hokimiyat zarur. Shunnig uchun ham o'zbekistonda hokimlik instituti tiklandi. 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Oliy kengashinnig "O'zbekiston poytaxti – Toshkent shahrinnig maqomi va uni boshqarish tizimi to'qrisida"gi qarori bu yo'nalishda birinchi qadam bo'ldi. Mazkur qarorga asosan Toshkent shaqrida vakillik va idjro etuvchi hokimiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan hokim instituti tashkil etildi. 1992 yilnnig boshida bunday amaliyot butun respublikada amalga joriy etildi. 1992 yil 4 yanvarda respublika oliy kengashi "O'zbekiston Respublikasida mahalliy organlarni tashkil etish to'qrisida" gi qonunni qabul qildi.

Mazkur qonunga muvofiq, mamlakatning barcha viloyatlari, tumanlari, shaharlarida mahalliy hokimiyat organlari qayta tashkil etildi – hokim lavozimi joriy qilindi.

O'zbekiston respublikasi Konstituttsiyasi va yuqorida zikr etilgan qonunga muvofiq, hokim viloyat, tuman, shaharning oliy mansabdor shaxsi hisoblanadi. U tegishli hududdagi vakillik va ijro etuvchi hokimiyatni boshqaradi, halq deputatlari Kengashlari sessiyasini tayyorlash ishiga raqbarlik qiladi, sesmiyalarni chaqiradi, deputatlarga bo'lajak sessiya qaqida xabar beradi, unnig ishini boshqaradi, shuningdek sessiyada qabul qilingan qarorlarni imzolaydi.

Xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatining vakillik organlari bo'lib, fuqarolar mazkur organlarga o'z vakillari – deputatlarni saylaydilar. Mazkur deputatlar o'z saylovchilaridan olgan vakolatlariga muvofiq, ularnnig nomidan ish ko'radilar.

O'zbekiston Respublikasinnig «mahalliy davlat hokimiyati organlari

to'g'risida"gi 1993 yil 2 sentyabr qonuni (tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) V bobida mahalliy hokimiyat ijro etuvchi organlarinnig tuzilishi va mazkur organlar faoliyatinnig tashkiliy asoslari belgilangan

Qonunnig 21-moddasigi muvofiq viloyat, tuman, shaharda ijro etuvchi hokimiyatni hokim boshqaradi. Hokim birinchi o'rinbosarga va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan miqdorda o'rinbosarlarga ega bo'ladi.

hokim o'rinbosarlari, qoida tarzida, tegishli xalq deputatlari Kengashining deputatlari jumlasidan tayinlanadi va tasdiqlanadi.

Viloyat va Toshkent shahri hokimining birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari hokim tomonidan, O'zbekiston Respublikasi prezidenti bilan kelishilgan holda tayinlanadi va lovozimdan olinadi hamda qabul qilingan qaror tegishli xalq deputatlari kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

Yuqorida zikr etilgan qonun hujjatining 22-moddasida mahalliy hokimiyat ijro etuvchi organlari boshqarmalar, bo'limlar va boshqa bo'linmalardan tashkil topadi. Ularning tuzilmapasi. Ularni tashkil etish va ish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan tegishli nizomlar bilan belgilanadi.

Viloyat va Toshkent shahar hokimiyati apparatining namunaviy tuzilmasi va shatatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maqkamasi tomonidan, tuman va shahar hokimiyati apparatinnig tuzilmasi va shatatlari esa yuqori hokim tomonidan belgilanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida tuman va shahar hokimiyatining namunaviy tuzilmasi va shatatlari Qoraqalpog'iston respublikasi Vazirlar Kenngashi tomonidan belgilanadi.

Qounning 25-moddasi hokim vakolatlarini tartibga soladi.

Viloyat, tuman, shahar hokimi:

- Oliy Majlis qonunlari va boshqa hujjatlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Maqkamasi qarorlarining, yuqori organlar va tegishli xalq deputatlari Kengashi qarorlarining ijro ejtilishini tashkil qiladi;

-jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, ularning huquqlari va soqliqini muqofaza qilish bilagn

boqliq chora-tadbtrlarni amalag oshiradi, tabiiy ofatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda holatlarda ishni tashkil etadi;

- viloyat, tuman, shaharni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, viloyat, tuman, shahar byudjetining asosiy parametrlarini va ularning ijro etilishi to'qrisidagi qisobotlarni xalq deputatlari Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etadi;

- hokimiyat apparati bo'limlarining raqbarlarini tayinlaydi va lavozimdan oladi;

- xalq deputatlari Keengashi va hokim qarorlarini bajarmagan mansabdor shaxslarni intizom jazosiga tortish to'qrisidagi taqdimnomani qonunda belgilangan tartibda kiritadi;

- murojatnomalarni ko'rib chiqadi va davlat mukofotlari bilan taqdirlash haqida takliflar kiritadi;

- respublika va xorijda viloyat, tuman. Shaharning rasmiy vakili sifatida ishtirok etadi;

- fuqarolarni qabul qilishni tashkil etadi, ularning shikoyat va arizalarini ko'rib chiqadi.

Hokim qonun hujjatlariga muvofiq o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan viloyat tuman, shahar mol-mulkini hisobga olish, boshqarish. rejalashtirish, byudjet, moliya, har xil mulkchilik shaklidagi korxonalar. muassasalar, tashkilotlar bilan o'zaro aloqa qilish, qishloq xo'jaligi, yerdan va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish, tabiatni muqofaza qilish, qurilish, transport, yo'l xo'jaligi va aloqa, aholiga kommunal, savdo, ijtimoiy-madaniy xizmatlar ko'rsatish, aholini ijtimoiy himoya qilish, qonuniylik, huquqiy tartibot va xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinlarini himoya qilish bilan boq'liq masalalarni ham hal qiladi.

Boshqaruv organlari haqida so'z yuritganda budjet tashkilotlarining faoliyatini tartibga solib turuvchi organlarning ham funksional vazifalarini ne chog'lik muhim ekanligini e'tiborga olish lozim.

Hammamizga ma'lumki, aholini ijtimoiy himoyalash masalasining ustuvorligi

O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish bozor iqtisodiyotiga o'tish dasturining eng ustuvor yo'nalishi sifatida tan olinadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan bozor munosabatlarga o'tishning bosh tamoyilidan biri aholini demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish hisoblanadi. Shu sababli mahalliy byudjetdan aholining kam ta'minlangan qatlamlariga to'lanayotgan ijtimoiy to'lovlar hajmi oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida byudjet ijrosining amaldagi holatidan kelib chiqqan holda, mahalliy byudjetlar hukumatning iqtisodiy-ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda mavqeini yanada ko'tarishga sabab bo'layotgan qator omillarni ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, mahalliy moliya organlarining byudjet ijrosidan manfaatdorligini oshirish va shuning asosida byudjet xarajatlarini to'g'ri va oqilona tarzda sarflanishi va byudjet tushumlarining yangi manbalarni qidirib topish ga rag'batlantirishni ta'minlashdir.

Bugungi kunda mahalliy byudjetning huquqiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni
- O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi 2004 y O'ZRDSQ 80-bet
- O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni
- O'zbekiston Respublikasining "Buxg'alteriya hisobi to'g'risidagi" Qonuni
- O'zbekiston Respublikasi VMning 2002-yil 5-dekabrdagi 610-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2005-yilgi davlat byudjeti asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar to'g'risida"gi qarori
- "Byudjetda ko'zda tutilgan xarajatlarni to'liq va o'z vaqtida moliyalashtirishni ta'minlash va byudjet mablag'larining maqsadli ishlatilishi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish maqsadida" 2005-yil 2-yanvardagi buyrug'i
- O'zbekiston Respublikasi Vmning 2005-yil asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi 244-son qarori

O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 14-dekabrda qabul qilingan «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonunning 4-moddasiga byudjet tizimiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Byudjet tizimi turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini byudjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, byudjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek, byudjetlar va byudjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi.» Jamlangan byudjetning ko'rsatkichlari mamlakat markazlashtirilgan moliyaviy fondidan foydalanish va uni shakllantirishni tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarini muvofiqlashtirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida Respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhimdir. Markazlashtirilgan rejalashtirish tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida 1-navbatda boshqaruv tizimini tarkibini o'zgartirishni va jarayonlar davomida mahalliy boshqaruv organlarining rolini oshirib borishni taqozo etadi.

Mahalliy boshqaruv organlariga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirishni ularning moliyaviy mablag'larga ega bo'lishlari bilan bog'liq. Albatta mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy moliyaviy negizi mahalliy byudjetlar hisoblanadi. Davlat byudjeti tarkibida Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar, Toshkent shahri byudjetlari, davlat maqsadli jamg'armalari jamlanadi.

O'zbekiston Respublikasi byudjeti bir butundir, ya'ni byudjet tizimi barcha bo'g'inlarga davlatning yagona davlat byudjetiga kiradigan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar, Toshkent shahri, shahrlar, tumanlar byudjetlarining uzviy birligini bildiradi.

Byudjet 1-navbatda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy tizimining yahtililigini belgilab beradi. Byudjet tizimi butun respublika hududida amal qilayotgan davlat daromadlari hamda umumman Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar, Toshkent shahri, shahrlar, tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat xarajatlarining bir butun tizimiga asoslanadi. Byudjet

yaxlitligi byudjetga doir prognozlashtirish uslubiyati va tashkil etish bir bo'g'inligini kafolatlaydi.

Moliya boshqarmasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining boshqa qarorlariga, Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nizomga va boshqa me'yoriy aktlarga amal qiladi.

Moliya boshqarmasi zimmasiga yuklatigan vazifalarga muvofiq quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- Iqtisodiyotni rivojlanishi hamda aholi turmush farovonligini oshirish maqsadida soliq siyosati va soliqqa tortish tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va Moliya vazirligiga taqdim etish;

- Byudjetga soliq va boshqa tushumlarni, shuningdek davlat mulkini xususiyashtirishdan hamda davlat ulushiga hisoblangan dividendlar tushishi ustidan nazorat olib boradi;

- Berilgan vakolati doirasida byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishi hamda davlat ulushi bo'lgan xo'jalik sub'ektlarda moliya intizomiga rioya etilishini nazorat qiladi;

O'zbekistonda byudjet tizimini isloh qilish mahalliy byudjetlarni samarali boshqarishning hozirgi kundagi amaliyoti va nazariyasi oldiga uning yangi muammolariga yechim topishni ko'ndalang qo'ymoqda.

Darhaqiqat, O'zbekistonda byudjet tizimi taraqqiyotining hozirgi bosqichi davlatning yaxlit byudjet va ijtimoiy siyosatning manfaatlari mushtarakligini ta'minlash asosidagi o'ta ma'suliyatli vazifalari samarali boshqarish talab etilmoqda, shu vazifani 2 jihatini ajratib ko'rsatish muhim.

Birinchiidan, davlat ijtimoiy siyosatning joylardagi ijobiy ijrosi yoki hududiy iqtisodiyot muammolari keskinlashuvining oldini olish.

Ikkinchiidan, mahalliy byudjetlar huquq va majburiyatlarining kengayib borishi sharoitida shunga mos tarzda ular imkoniyatlarini yaxshilashning zarurligi.

Bu 2 jihatning o'zaro bog'liq tarzda birga olib borilishi davlat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi kundagi o'ta muhim muammosini hal etishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda boshqaruv organlarining funksional vazifalari muhim omillardan biri hisoblanib, uning yordamida bozor iqtisodiyotida faoliyat olib borayotgan korxona va tashkilotlarning samarali faoliyati muvofiqlashtiriladi.

1.2. O'zbekiston Respublikasida mahalliy va hududiy boshqaruv organlari roli

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilyotgan demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish uchun q'arbda mahalliy tuzilmalar deb ataluvchi mahalliy hokimiyat organlarining roli va huquqiy maqomini oshirish muhim vazifalardan biridir.

Boshqaruv - bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir.

Boshqaruv - bu boshqaruvchiga tanlovni to'g'ri amalga oshirishni va ishchan qarorni qabul qilishni o'rgatuvchi jarayondir. Uning asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida barcha bo'g'inlarda ishlay oladigan yuqori malakali boshqaruvchilarni tayyorlashdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda bu jarayon quyidagilarni o'rganadi:

- boshqarish nazariyasi va amaliyoti;
- boshqarish ob'ekti va sub'ekti;
- boshqarish tamoyillari va usullari;
- boshqarish madaniyati;
- menejer va uning fazilatlari;
- menejer reytingi;
- boshqarishda kirishuvchanlik va qaror qabul qilish;
- boshqarish funktsiyalari;
- xodimlarni boshqarish;
- ishlab chiqarishni boshqarish;

- samaradorlikni boshqarish;
- o'z-o'zini boshqarish;
- hududiy boshqarish va xokazolar.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda davlat boshqaruvi organlarini qayta tuzish tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'ta markazlashtirilgan boshqaruv tizimli davlat tuzilishidan ko'p ukladli fuqarolik jamiyatiga o'tishda oliy davlat muassasalarining ko'pgina vakolatlari asta-sekin mahalliy hokimiyat organlariga, ulardan esa – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga berilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida quyidagilar mahalliy siyosatning ustuvor yo'nalishlari deb e'tirof etiladi:

- ko'p ukladli iqtisodiyot shakllangan, mamlakatning xo'jalik qayotini boshqarish nomarkazlashgan demokratik davlat qurish;
- mintaqalarga sifat jihatidan yangi iqtisodiy mustaqillik berish va mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlarini kengaytirish;
- davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda mahalliy hokimiyat organlarining yetakchilik qilishi;
- mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini aholining real ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirish.

Davlat va jamiyat tuzilishining barqarorligi, respublika va mintaqaviy boshqaruv organlari mahalliy boshqaruv organlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilganligi, mahalliy o'zini o'zi boshqarishning o'ziga xos jihatlari o'zbek xalqining madaniyati va an'alariga qadimdan hosligi O'zbekiston Respublikasida mahalliy boshqaruv organlari shakllanishining o'ziga xos xususiyatlaridir.

O'zbekiston Respublikasida mahalliy faoliyatni tartibga solish zaruratining oshib borayotganligi iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan bir qator ob'ektiv omillar bilan belgilanadi.

Birinchidan, mustaqillik sharoitlarida mamlakatda amalga oshirilayotgan isloqatlarning sur'ati va sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omill – hududiy, tabiiy, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning roli izchil ortib boradi.

Ikkinchidan, shahar va tuman xo'jaliklarini rivojlantirishning o'ziga xos, potentsial imkoniyatlari va mavjud cheklashlarning hamda hududga muayyan ishlab chiqarish turlari tomonidan qo'yilgan talabalarning yetarli daraja e'tiborga olinsmasligi ayrim samarasiz qarorlarning qabul qilinishiga, iqtisodiy o'sishning mavjud zahiralaridan to'liq foydalanmasligiga olib keladi.

Uchinchidan, iqtisodiyotni boshqarish sohasida vakolatlar olgan mahalliy hokimiyat organlari, aloqida ob'ektlarning tobeligidan qat'iy nazar, o'z hududida yashaydigan aholining turmush darajasi. Mazkur hududda tabiatdan oqilona foydalanish va uni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun javobgar bo'ladilar.

To'rtinchidan, respublikada iqtisodning aloqida sohalarida va alohida tarmoqlarda quduqlar o'rtasida ishlab chiqarish yuklamalarinnig qayta taqsimlanipshi bilan belgilanuvchi quduqlararo o'zaro aloqalarning o'ziga xos turi shakllanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti hududiy bo'linmalari tiziminnig rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatishga qodir hududlarni aniqlash samarali davlat siyosatini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Bunday hududlar jumlasiga, avvalambor, iqtisodni rivojlantirish uchun eng muhim resurslarga ega hududlarni kiritish mumkin. Zotan, mazkur resurslarni o'zlashtirish taqchil mahsulot ishlab chiqarishning zarur darajada o'sishini ta'minlash imkonini beradi.

Hududiy boshqaruvni takomillashtirish. Eng muhim masalalardan biri yana biri – bu hokimliklarga ular hududida joylashgan vazirliklar, respublika tashkilotlarininng hududiy bo'linmalari ishini muvofiqlashtirish xuquqlari berilganligidir.

Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishni takomillashtirish va markaziy boshqaruv organlari vakolatlarini bir qismini asta-sekin maxalliy boshqaruv organlariga berish, maxalliy hokimiyat organlari faoliyatini samaradorligini yanada oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bobi va "Maxalliy davlat hokimiyati to'grisida" gi qonun ga muvofiq Vazirlar Maxkamasining 30 sentyabr 1997 yilgi "Shaharlar va

tumanlar hokimliklari apparati tuzilmasini takomillashtirish to'grisida" gi qarorida belgilangan.

Shaharlar va tumanlar hokimliklari apparati boshqaruvining tarmoq tizimidan funktsional tizimiga o'tish maqsadga muvofiq deb xisoblanadi. Qarorda ko'zda tutilgan o'ziga xos jixatlar biri hokimliklarda tarmoqlar boshqaruv tizimi o'rniga kotibiyatlar tashkil etilganligidir. Bundan maqsad xududlarda ijtimoiy-iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirishni ta'minlash, boshqaruvda yaxlitlikka erishish, qabul qilinayotgan qaror va xujjatlar saviyasini oishirish. Ularni quyi boshqaruv organlarida izchil bajarilishini nazorat qilishga qaratilgan.

Qarorga binoan shahar va tumanlar hokimliklar apparati zimmasiga quyidagi asosiy vazifalarni xal etish yuklatilgan:

- xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan kompleks dasturlarini ishlab chiqish hamda xalq xo'jaligi ni tarmoklarida isloxlarni chuqurlashtirish va xalq farovonligini oshmrishni ta'minlash yuzasidan hukumat va hududlar dasturlarini amalga oshirish;

- maxalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga raxbarlik qilish;

- xo'jalik yuritish shakllarini takomillashtirish, maxalliy xususiyatlarni xisobga olgan xolda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tarkibiy qayta o'zgartirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

- fukarpolarni ijtimoiy va huquqiy ximoya qilish, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish va hokazo.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi masalalari bilan viloyat, shahar hokimiyatlari koshidagi makroIqtisodiyot va statistika bosh boshqarmasi shug'ullanadi. Hokimiyatlar qoshida iqtisodiyot bilan shug'ullanuvchi barcha idoralar istiqboldagi muammolarni rejelashtirish boshqarmasi bilan muvofiklashtiradi. Hokimiyatlar tarkibida iqtisodiyotning u yoki bu soxalari bilan shug'ullanadigan moliya bo'limlari, banklar va boshqa idoralar shug'ullanadi. Hudud rejalaroini tuzishga xalq deputatlari maxalliy kengashlari raxbarlik qiladi.

Hududlardagi rejalashtirish tashkilotlari o'z faoliyatini jumhuriyatning tegishli vazirligi va maxalliy hokimiyat tasdiqlagan nizom asosida olib boradi. Nizomda rejalashtirish boshqarmasining quyidagi asosiy vazifalari belgilanadi:

- viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish rejasini tuzish va unda ijtimoiy va ishlab chiqarish soxalarini barqaror va mo'tanosib rivojlantirishni ta'minlash, atrof-muxitni muxofaza qilish;

- viloyat axolisini xalq ite'mol tovarlariga bo'lgan talabini tula kondirish, axolining pul daromadlari va xarajatlari mo'tanosibligini ta'minlash;

- maxalliy byudjet va korxonalarining daromadlari xisobiga o'z o'zini mablag bilan ta'minlash tamoyili asosida, yillar mobaynida 2 darajali bo'lib kelgan, ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish.

Xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rejalashtirishda davlat korxonalarining mafaatlari hudud iqtisodiy mafaatlari bilan muvofiq qo'shib olib borish kerak. Korxonalarining davlat tasarrufidan chiqishi ularning iqtisodiy mustaqilligini kengaytiradi. Mustaqil korxonalarining faoliyatini muvofiq qo'shib olib borish hududiy samaradorlikning oshirilishiga ta'sir etadi. Hududiy rejalashtirishning tashkilotlari iqtisodiy jihatdan mustaqil korxonalarining faoliyatlarini muvofiqlashtirish va tartibga solish vakolatlariga egadir. Ularning shu kabi vakolatlari maxalliy o'zini-o'zi boshqarish va xalq deputatlari maxalliy kengashlari to'g'risidagi qonun da ko'rsatib berilgan.

Xulosa qilib aytganda, hududiy boshqaruvni takomillashtirishdan asosiy maqsad maxalliy-xududiy o'zini o'zi boshqaruvni davlat Boshqaruvi bilan uygun va muvofiq ravishda olib borish, boshqacha qilib aytganda maxalliy boshqaruv organlarining mustaqilligini kuchaytirgan holda ular faoliyatini markaziy davlat boshqaruv orgnalari tomonidan bilvosita nazorat qilishdir.

1.3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida boshqaruv organlarining funksional vazifalarini o'ziga xos xususiyatlari

Organ-bu biror boshqaruv tizimi tarkibiga kiruvchi muassasa, tashkilotdir. Boshqarish organi esa ijtimoiy mexnat taqsimoti, xususan boshqaruv mexnati

taqsimoti natijasida vujudga kelgan boshqaruv apparatidir.

Boshqarish apparatini tuzish jarayoni boshqarishning qabul qilingan strukturasi doirasida uning funktsiyalarini amaldagi qoidalariga binoan taqsimlash va vazifalarini aniqlashdan boshlanadi. Soʻngra har bir funktsiyalar:

- guruhi;
- ularning hajmi;
- darajasi va bosqichi;
- ixtisoslashtirilishi;
- markazlashtirilishi va kooperatsiyalashtirilishi taxlil qilinadi.

Ana shulardan keyin aniq ishlar yoʻnalishi aniqlanadi, yangi organ tuzish yoki mavjud boʻlinmadan mustaqil organ ajratish, yoxud mavjud organlarga qoʻshimcha funktsiyalarni topshirish toʻgʻrisida qaror qabul qilinadi.

Boshqarish organlarini tuzishda quyidagi ikki tamoyilga eʼtibor beriladi:³

Birinchi tamoyil-bu boshqarish doirasi boshqarish normasi cheklashni, yaʼni bir raxbarga muayyan va qatʼiy cheklangan xodimlar va boʻlinmalar sonining boʻysinishi nazarda tutiladi. Bunda hozircha yagona normalar belgilanmagan. Baʼzi chet el mutaxassislari boʻysinuvchi ijrochilar va boʻlinmalar soni 5-6 kishidan oshmasligi kerakligini tavsiya qiladilar.

Bizning iqtisodchilar boshqarish normasi 6-12 kishigacha boʻlishi mumkin va master darajasida boshqarilish normasi 30 tagacha ishchi miqdorida belgilash tavsiya etiladi. Amalda esa ularning soni 17 va 20 kishigacha etadi.

Ikkinchi tamoyil-bu boshqarish strukturasi ierarxik bosqichlar sonini cheklashni nazarda tutadi. Bizdagi va chet ellardagi amaliyot shuni tasdiqlaydiki, raxbar bilan ishchi oʻrtasidagi darajalar 4-5 tadan oshmasligi kerak. Aks holda bosqich va boʻgʻinlar sonining koʻpayishi natijasida axborotlarning oʻtishi sekinlashadi, boshqarishning tezkorligiga va ishonchligiga putr etadi.

Boʻysinuvchi xodimlar va ierarxik bosqichlar sonini cheklashni koʻzda tutadigan bu ikkala tamoyil bir biriga ziddir. Boʻysinuvchilar sonini oshirib, bosqichlar sonini kamaytirish va aksincha qilib boshqarish strukturasi

³ M.Sharifxoʻjayev, Yo.Abduallayev. Menejment. Darslik. T.:2001 y. 546 b.

takomillashtirish mumkin.⁴

Mamlakatimizning ulkan xududida murakkab xalq xo'jaligini boshqarish uchun ko'p tarmoqli boshqaruv-organlari tuzilgan. Ular respublika miqyosidagi oliy vakolatli organlar bo'lib tarkibi quyidagilardan iborat.

Hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi Konstitutsiyamizning 11-moddasi bilan qonunlashtirilgan.⁵ Bu organlarning har biri o'zaro chambarchas xarakat qilishi bilan birga o'z vakolatlari doirasida mustaqil va erkin faoliyat ko'rsatadilar. Bu esa hokimiyatning bitta organ ixtiyoriga xaddan tashqari mujassam bo'lmashligini ta'minlaydi, ularning xalq va qonun oldidagi xuquqlarini aniq taqsimlab berishga xizmat qiladi.

Boshqaruvning eng tepasida Prezident turadi. Bosh Qomusimizning 89-moddasida shunday deyilgan:

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda vazirlar maxkamasining Raisi hisoblanadi.

Prezident O'zbekiston Respublikasi tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov xuquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan besh yil muddatga saylanadi. Konstitutsiyamizning 93-moddasiga binoan. Prezident quyidagi vakolatlarga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti:

- Fuqarolarning xuquqlari va erkinliklariga, konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishning kafilidir;

- O'zbekiston Respublikasining suvirneneti, xavfsizligi va xududiy yaxlitligini muxofaza etish milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi;

- Mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;

⁴M.Sharifxo'jayev, Yo.Abdullayev. "Menejment". Darslik. T.:2001 y. 450 b.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.T.:2014 y.

- Muzokaralar olib boradi va O'zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi;

- O'z xuzurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik va boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

- O'zbekiston Respublikasining chet davlatlaridagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlaydi xamda lavozimlardan ozod qiladi;

- Respublika Oliy Majlisiga xar yili ichki va xalqaro axvol xususida ma'lumotnoma taqdim etadi;

- Ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga raxbarlik qiladi; respublika oliy hokimiyati va boshqaruv organlarining baxamjixat ishlashini ta'minlaydi; O'zbekiston Respublikasi vazirliklarini, davlat qo'mitalarini xamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni Oliy Majlis tasdig'iga kiritadi;

- Bosh Vazir, uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlarini, Vazirlar Maxkamasi a'zolarini, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni Oliy Majlisning tasdig'iga kiritadi;

- Oliy Majlisga Konstitutsiyaviy sud raisi va a'zolari, Oliy sud raisi va a'zolari, Oliy xo'jalik sudi raisi va a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisi, O'zbekiston Respublikasi tabiatini muxofaza qilish davlat qo'mitasining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi.

- Viloyat, tuman, shaxar va xo'jalik sudlarining sud'yalarini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod qiladi;

- Viloyat hokimlarini va Toshkent shaxar hokimini tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi, bu masalalarni tegishli xalq deputatlari kengashining tasdig'iga qo'yadi; Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadri-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shaxar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimdan ozod etishiga haqli;

- Respublika boshqaruv organlarining, shuningdek hokimlarining qabul qilgan

xujjatlarini to'xtatadi va bekor qiladi;

- O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi; qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muxokama qilish va ovozga qo'yish Oliy Majlisga qaytarishga xaqli. Agar Oliy Majlis ilgari o'zi qabul qilgan qarorni uchdan ikki qismdan iborat ko'pchilik ovoz bilan tasdiqlasa, Prezident qonunni imzolaydi;

- Favqulotda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekiston respublikasining butun xududida yoki uning ayrim joylarida favqulotda xolat joriy etadi, qabul qilgan qarorini uch kun mobaynida O'zbekiston Respublikasi, Oliy Majlisining tasdig'iga kiritadi. Favqulotda holat joriy etish shartlari, va tartibi qonun bilan belgilanadi.

- Respublika Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni xisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi; Oliy xarbiy unvonlarni beradi;

- O'zbekiston Respublikasiga xujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini muxofaza qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush xolati e'lon qiladi, qabul qilgan qarorini uch kun mobaynida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tasdig'iga kiritadi;

- O'zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig'i bilan mukofotlaydi, O'zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;

- O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni xal etadi;

- Amistiya to'g'risidagi xujjatlarni qabul qiladi va O'zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan xukm qilingan fuqarolarni avf etadi;

- Milliy xavfsizlik va davlat nazorati xizmatlarini tuzadi, ularning raxbarlarini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, xamda o'z vakolatiga kiradigan boshqa masalalarni xal qiladi.

Prezident o'z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor

shaxslarga topshirishga xaqli emas.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, boshqarishning umumdavlat organlari tarkibiga qonun chiqaruvchi organlar xam kiradi. Qonun chiqaruvchi organ-bu Oliy Majlisdir. Konstitutsiyamizning 76-77 moddalarida shunday deb yozilgan:⁶

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi, xududiy saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyalilik asosida besh yil muddatga saylanadigan 250 nafar deputatdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1994 yil 25 dekabrda saylangan bo'lib, mamlakatda demokratiya taraqqiyotining yangi bosqichini o'zida ifodalaydi.

Parlament ishini tashkil etish uchun Oliy Majlis raisi raxbarligida Oliy Majlis Kengashi tashkil qilingan. Lavozimi bo'yicha uning tarkibiga rais o'rinbosari, Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyasi raislari, blok va fraktsiyalar vakillari kiradi.

Oliy Majlis tarkibiga quyidagi qo'mitalar faoliyat ko'rsatadi:

- byudjet, bank va moliyaviy masalalar bo'yicha;
- iqtisodiy islohatlar va ishbilarmonlikni rivojlantirish;
- qonun chiqarish va sud-xuquqiy masalalar bo'yicha;
- xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar bo'yicha;
- sanoat, energetika, tarknsport, aloqa va axoliga xizmat ko'rsatish bo'yicha;
- agrar, suv xo'jaligi masalalari va oziq-ovqat bo'yicha;
- mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish masalalari bo'yicha;
- qurilish va uy-joy xo'jaligi bo'yicha;
- matbuot va axborot bo'yicha;
- mudofa va xavfsizlik masalalar bo'yichcha.

Oliy Majlis xalq xo'jaligini markazlashtirilgan tarzda boshqarishda bevosita ishtirok etadi. Mamlakatni rivojlantirish soxasida Oliy Majlisga Konstitutsiyamizning 78-moddasiga binoan quyidagi mutloq vakolatlar berilgan:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

⁶ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T: 2013 y.

- O'zbekiston Respublikasi qonunlarini qabul qilish xamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

- O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash va davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

- O'zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari tizimini va vakolatlarini belgilash;

- O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi xaqidagi qarorlarin tasdiqlash;

- Boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tarktibga solish;

- Ma'muriy-xududiy tuzilish masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, O'zbekiston Respublikasining chegaralarini o'zgartirish;

- Vazirlar Maxkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining byudjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va maxalliy vakillik organlariga saylov tayinlash; Markaziy saylov komissiyasini tuzish;

- Vakolati tugashi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylov kunini tayinlash;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisini va uning o'rinbosarlarini saylash;

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini saylash;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudini saylash;

- O'zbekiston Respublikasining Oliy xo'jalik sudini saylash;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish davlat qo'mitasining raisini tayinlash va vazifasidan ozod etish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Bosh Vazir, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlarini, VazirlarMaxkamasi a'zolarini tayinlash va lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlash va lavozimlaridan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisini tayinlash va lavozimidan ozod etish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa davlat boshqaruv organlarini tuzish va tugatishi xaqidagi farmonlarini tasdiqlash;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulotda xolat joriy etish; uning muddatini uzaytirish va to'xtatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

- Xalqaro shartnomalarni va bitimlarni ratifikatsiya (tasdiqlash) va denonsatsiya (barvaqt to'xtatish) qilish;

- Davlat mukofatlari va unvonlarini ta'sis etish;

- Tumanlar, shaxarlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatishi, nomini o'zgartirishi va ularning chegaralarini o'zgartirish;

- Ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarini amalga oshirish kiradi.

Bu vakolatlarni bajarish faqat sessiyalar ishi davrlaridagina emas, balki yuqorida qayd etilgan o'ntadan iborat doimiy komissiyalar orqali amalga oshirilib boriladi.

O'zbekiston Davlat hokimiyatining oliy ijro etuvchi organi- bu Vazirlar Maxkamasidir. Uning tarkibini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tuzadi va u Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni bir vaqtning o'zida Vazirlar Maxkamasining Raisi xisoblanadi.

Konstitutsiyaning 98-moddastga binoan Vazrlar Maxkamasi:

- iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy soxaning samarali faoliyatiga raxbarlikni;

- qonunlar Oliy Majlisning boshqa qarorlari;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Maxkamasi amaldagi qonunlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi xududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazrlar Maxkamasi quyidagi strukturaga ega.

Mamlakatni boshqarish tizimida funktsional, tarmoqlararo organlar, ya'ni Markaziy bank, Davlat soliq qo'mitasi, bojxona kabilar butun xalq xo'jaligi miqyosida aniq boshqaruv funktsiyalarini malaga oshirishga da'vat etilgan.

Konstitutsiyamizning 106-moddasida sud hokimiyati xususida quyidagicha bayon qilingan:

O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil xolda ish yuritadi.

Sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan Konstitutsiyaviy, Oliy va Oliy xo'jalik sudlaridan, qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan viloyat sudlari, Toshkent shaxar sudi, tuman, shaxar va xo'jalik sudlaridan iborat.

Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning xujjatlari. Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi.

Oliy sud fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sudlov ishlarini yuritish borasida sud hokimiyatining oliy organi xisoblanadi.

Oliy xo'jalik sudi xo'jalik sudlov soxasida sud hokimiyatining eng yuqori organi xisoblanadi. Mulchilikning turli shakillariga asoslangan korxonalar muassasalar, tashkilotlar o'rtasidagi, shuningdek tadbirkorlar o'rtasidagi iqtisodiyot soxasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo'jalik nizomlarini xal etish Oliy xo'jalik sudi va xo'jalik sudlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

Sud hokimiyati chiqargan xujjatlar barcha davlat organlari, jamoat

birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

Ma'lumki, iqtisodiy isloxlarning pirovard natijalari uni amalga oshirish ob'ektidan qat'iy nazar (Respublika, tarmoq, korxona), mujassamlangan xolda xududiy birlik(viloyat, tuman, shaxar)lar darajasida namoyon bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqarishining tarmoq tizimidan funktsional tizimiga o'tishi maxalliy boshqarish organlari mavqeini yanada oshirishni taqozo etadi.

1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyaning XXI bobi-"Maxalliy davlat hokimiyati asoslari" -deb ataladi. Shu bobga binoan 1993 yil 2 sentyabrda O'zbekiston Oliy Majlisi "Maxalliy davlat hokimiyati to'g'risida" va "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi organlari to'g'risida" ikki muxim qonunni qabul qildi. Shu xujjatlar asosida mamlakatimizda oldin amal qilib kelgan uch bo'g'inli maxalliy boshqarish organlari tizimi o'rniga.

Respublikada tumanlarning ikki turi:

- viloyatlar tarkibiga kiruvchi tumanlar;
- shaxarlar tarkibiga kiruvchi tumanlar;

Shaxarlarning esa uch turi:

- tumanga bo'ysinuvchi shaxarlar;
- viloyatga bo'ysinuvchi shaxarlar;
- respublikaga bo'ysinuvchi shaxarlar mavjud.

Maxalliy vakillik organlari ikki bo'g'inli tizimining o'rnatilishi bilan cheklanilmay, mavjud xududiy tuzimilarning xam ba'zilarida maxalliy vakillik organlari tuzilmaydigan bo'ldi. Xususan, Konstitutsiya va qonun shaxar tarkibiga kiruvchi tumanlarda va tumanga bo'ysinuvchi shaxarlarda vakillik organlarining tuzilishini nazarda tutmaydi.

Maxalliy vakillik organlarining ikki bo'g'inli tizimi bag'rida maxalliy bashqarishning ikkita tutash organi faoliyat ko'rsatadi.

Viloyatlar, tumanlar va shaxarlarda (tumanga bo'ysinadigan shaxarlardan, shuningdek shaxarlar turkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlari bo'lib xisoblanadilar.

Viloyat, tuman, shaxar hokimi viloyat, tuman va shaxarning oliy mansabdor shaxsi bo'lib ayni bir vaqtda tegishli xuddagi vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi.

Ma'lumki, sobiq sho'rolar tizimida maxalliy boshqaruv organlari o'z faoliyatida ko'proq o'zlari raxbarlik qilayotgan xududlar manfaatini ustunroq qo'ysalar, u xolda "maxalliychilikda" ayblanar edilar. Shu sababli viloyatlar, tumanlar, shaxarlar ishlab chiqarishni rivojlantirishdan va samaradorlikni oshirishdan, milliy daromadda o'z ulushlarining ko'payishidan manfaatdor emasdilar.

Bu, o'z navbatida xududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Uzoq vaqt davomida boshqaruv organlari o'z zimmalaridagi muxim vazifalarni, ya'ni:

- iqtisodni rivojlanishiga bevosita raxbarlik qilish;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirish;
- mehnat va iste'mol me'yori ustidan nazorat olib borish;
- axoliga turli xil xizmatlarni ko'rsatish;
- mulklarni va jamoat tartibini qo'riqlash;

- tabiat resurslari va atrof muxitni muxofaza etish kabi, vazifalarni etarli darajada bajara olmadi. Natijada viloyat, tuman va shaxarlarning tabiiy-iqtisodiy, sotsial salohiyatidan foydalanish past darajada qolaverdi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa xar bir xudud o'z iqtisodiy rivojlanishida ko'proq erkinlikka ega bo'lishlari, ishlab chiqarish natijalaridan, avvalo, ushbu xudud axolisi manfaatdor bo'lishi lozim. Ma'lumki Respublikamizda bozor munosabatlariga o'tish jarayoni yangi-yangi ijtimoiy munosabatlarning, ayniqsa, mulk munosabatlarining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. O'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash, xo'jalik yuritishning yangi usullari vujudga keldiki, bularga eskicha usul bilan, eski organlar bilan raxbarlik qilib bo'lmas edi.

Yangi sharoitda, bu ulkan vazifalarni bajaruvchi, mas'uliyatni xis qiluvchi davlat organilari zarur bo'lib qoldi. Bunday davlat organi o'zi masalalarni tezkorlik bilan xal qilish qobiliyatiga ega bo'lishi va o'z xarakatiga javob bera olishi kerak

edi. Ana shularning xammasi maxalliy ijroiya organlarining kollegial organdan vakillikka asoslangan organlariga, ya'ni: yakkaboshchilik printsipli asosida tashkil qilingan organlarning bo'lishini taqazo etdi.

Ijro hokimiyatini amalga oshiruvchi organning kollegial organdan yakkaboshchilik asosida ish yurituvchi organga aylantirishning yana bir sababi - bir maxalliy boshqaruv strukturasining davlat faoliyatida qo'llanilayotgan hokimiyatning bo'linish printsipli talablariga, ya'ni davlat boshqaruv strukturasiga muvofiqlashtirish zaruriyati edi.

Ijro hokimiyati organi faoliyatida yakkaboshchilikning tiklanishi, o'zbek davlatchiligi milliy an'analarning tiklanishi desa xato bo'lmaydi. Amir Temur davridagi davlatchilikni ko'rsa xam ayrim xududlar, shaxarlar hokimlar tomonidan boshqarilgan. Mashxur Ulug'bek xam o'z vaqtida, ma'lum muddat Toshkent hokimi bo'lib turgan. Hokimlarning davlat boshlig'i tomonidan tayinlanishi xam an'alarimizga mos tushadi.

Konstitutsiyamizning 100 moddasiga binoan maxalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi:

- qonuniylikni, xuquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- xududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- maxalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, maxalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni xosil qilish;
- maxalliy kommunal xo'jalikka raxbarlik qilish;
- atrof-muxitni muxofaza qilish;
- fuqarolik xolati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
- normativ xujjatlarni qabul qilish xamda O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, bozor isloxotlarining birinchi bosqichida markaziy boshqaruv organlarining mavqei yuqori bo'lgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda isloxotlarning asosiy yuki maxalliy boshqaruv organlari zimmasiga tushmoqda. Shuning uchun xam iqtisodiy isloxotlarning chuqurlashuvi va ulardan kutilgan amaliy natijalarga erishuvi ko'p jixatdan kichik xududiy birliklar va ishlab

chiqaruvchilarga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Chunki bozor iqtisodi infrastrukturasi shakllanishi natijasida tarmoq, vazirliklar boshqaruv tizimining mavqei birmuncha pasayib, maxalliy, xududiy boshqaruv tizimining axamiyati ortmoqda.

1997 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari apparati tuzilmasini takomillashtirish to‘g‘risida”gi va “Shaharlar va tumanlar hokimliklari apparati tuzilmasini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari xam ana shu yo‘nalishdagi muxim xujjatlardan bo‘lib, xududlar ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni boshqarishni takomillashtirish, maxalliy hokimiyatlarning iqtisodiy-ijtimoiy isloxotlarni chuqurlashtirish bilan bog‘liq faoliyatlari samaradorligini yanada oshirishni nazarda tutadi.

Mazkur qarorlar maxalliy-xududiy boshqaruv faoliyatini tubdan o‘zgartirishga, tumanlar va shaxarlardagi iqtisodiy isloxotlarni taxlil qilishga va ularni zamonaviy usullar bilan boshqarishga qaratilgan.

Qarorlarning tub mohiyati, eng avvalo, boshqarishning tarmoq tizimidan funktsional tizimga o‘tishni joriy etishdan iborat.

Ma’lumki, bozor munosabatlarining to‘laqonli shakllanishi sharoitida gorizantal xo‘jalik aloqalarining kengayishi natijasida markaziy boshqaruv organlarining vakolatlari kamayib boradi. Saqlanib qolgan tarmoq boshqaruv organlari esa mamlakatimizning strategik iqtisodiy siyosatidan jamiyat talablaridan kelib chiqqan xolda:

- tarmoq rivojlanishi umumiy yo‘nalishlarini;

- ilmiy-texnikaviy siyosatni;

- chet el investitsiyalarni olib kelish;

- ekologik muammolarni xal qilish kabi masalalar bilan shug‘ullanadi.

Makroiqtisodiy rivojlanish masalalari bilan shug‘ullanuvchi vazirliklarning axamiyati ortadi.

Hududiy boshqaruvni takomillashtirishdan asosiy maqsad maxalliy-xududiy o‘zini-o‘zi boshqaruvni davlat boshqaruvi bilan uyg‘un va muvofiq ravishda olib

borish, boshqacha qilib aytganda, maxalliy boshqaruv organlarining mustaqilligini kuchaytirgan xolda ular faoliyatini markaziy davlat boshqaruv organlari tomonidan bilvosita nazorat qilishdir.

Yuqoridagi qarorlarda hokimliklar zimmasiga iqtisodiy-tabiiy salohiyatlardan to'g'ri va oqilona foydalanib, ulardagi mavjud muammolarni xal qilishda vazirliklar markaziy boshqaruv organlari bilan kelishilgan xolda sotsial-iqtisodiy rivojlantirishni rejalashtirish, shu maqsadda dasturlar majmuini ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan.

Eng muxim masalalardan yana biri - bu hokimliklarga ular xududida joylashgan vazirliklar, respublika tashkilotlarining xududiy bo'linmalari ishini muvofiqlashtirish xuquqlari berilganligidir.

Demak, hokimliklar ushbu xududda joylashgan barcha xo'jalik va korxonalar faoliyatini maxalliy shart-sharoitlardan kelib chiqqan xaolda muvofiqlashtiradilar. Bu - xududlar ijtimoiy xolatini yaxshilashga, eng avvalo, band bo'lmagan axolini ish bilan ta'minlash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishga keng yo'l ochadi.

O'zbekiston Respublikasi "Maxalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonuning 24 moddasiga binoan xalq deputatlari viloyat tuman, shaxar Kengashining asosiy vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- hokimning taqdimiga binoan maxalliy byudjet va uning ijrosiga doir xisobotni, xududni rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan dasturlarini, tuman, shaxarning bosh rejasi va uni qurish qoidalarini tasdiqlash;

- amaldagi qonunlarga muvofiq maxalliy soliqlar, yig'imlar, boj miqdorini belgilash, maxalliy byudjetga tushadigan maxalliy soliqlar, yig'imlar va to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berish;

- hokimni va uning o'rinbosarlarini lavozimga tasdiqlash hokimni va uning o'rinbosarlarini lavozimdan ozod etish, ularning faoliyatiga doir xisobotlarni tinglash;

- ushbu qonunda nazarda tutilgan xollarda hokim qarorlarini tasdiqlash;

- xalq deputatlari Kengashining ish tartibini, xalq deputatlari Kengashi doimiy va boshqa komissiyalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash, ularga o'zgartirishlar

va qo‘shimchalar kiritish;

- xalq deputatlari Kengashining doimiy va muvaqqat komissiyalarini, boshqa organlarini tuzish, saylash va tugatish: ularning tarkibini o‘zgartirish, ular ishiga doir xisobotlarni tinglash;

- qonunlarda belgilangan xollarda va tartibda xalq deputatlarining vakolatlarini e‘tirof etish va muddatidan oldin to‘xtatish, ularni javobgarlikka tortish uchun rozilik berish;

- ijroiya hokimiyati bo‘limlari, boshqarmalari, boshqa strukturaviy bo‘linmalarining xisobotlarini tinglash;

- xalq deputatlarining so‘rovlarini qarab chiqish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilish;

- hokimning va qyishi Kengashning O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga mos kelmaydigan qarorlarini bekor qilish;

- hokimning taqdimiga binoan hokimlik strukturasini, uning xodimlari shtatlari va ish xaqi fondini tasdiqlash kiradi.

Bulardan, tashqari xalq deputatlari viloyat, tuman va shaxar Kengashlari fuqarolarning xuquqlari va qonuniy manfaatlariga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashga, atrof-muxitni muxofaza qilishga doir o‘z vakolatlariga berilgan masalalrni, tashkiliy masalalr va O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq nazorat etishga doir masalalarni xal etadi.

Xududlarda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishni takomillashtirish va markaziy boshqaruv organlari vakolatlarining bir qismini asta-sekin maxalliy boshqaruv organlariga berish, maxalliy hokimiyat organlari faoliyatining samaradorligini yanada oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining XXI bobi va “Maxalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq Vazirlar Maxkamasining 30 sentyabr 1997 yiligi “Shaxarlar va tumanlar hokimliklari apparati tuzilmasini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori bilan: shaxarlar va tumanlar hokimliklari apparati boshqaruvining tarmoq tizimidan funktsional tizimiga o‘tish maqsadga muvofiq deb xisoblandi.

Qarorda ko‘zda tutilgan o‘ziga xos jixatlardan biri hokimliklarda tarmoqlar

boshqaruv tizimi o'rniga kotibiyatlar tashkil etilganligidir. Bundan maqsad xududlarda ijtimoiy-iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirishni ta'minlash, boshqaruvda yaxlitlikka erishish, qabul qilinayotgan qaror va xujjatlar saviyasini oshirish, ularning quyi boshqaruv organlarida izchil bajarilishini nazorat qilishga qaratilgan.

Qarorga binoan shaxar va tumanlar hokimliklari apparati zimmasiga quyidagi asosiy vazifalarni xal etish yuklangan:

- xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan kompleks dasturlarni ishlab chiqish xamda xalq xo'jaligi tarmoqlarida isloxlarni chuqurlashtirish va xalq farovonligini oshirishni ta'minlash yuzasidan xukumat va xududlar dasturlarini amalga oshirish;

- maxalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga raxbarlik qilish;

- xo'jalik yuritish shakllarini takomillashtirish, maxalliy xususiyatlarni xisobga olgan xolda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tarkibiy qayta o'zgartirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

- fuqarolarni ijtimoiy va xuquqiy ximoya qilish, tabiiy va mexnat resurslaridan oqilona foydalanish xamda atrof muxitni muxofaza qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

- qonunlar, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi prezidenti farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Maxkamasi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shaxar Kengashlari va ularning hokimliklarining qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlash;

- moliya va to'lov intizomini mustaxkamlash, o'zaro xisob-kitoblarni takomillashtirish;

- tadbirkorlik va xususiy tashabbusni qo'llab-quvvatlash va sog'lom raqobot muxitini yaratish.

Xulosa qilib aytganda, qabul qilingan mazkur qaror maxalliy-xududiy boshqaruv tizimi vakolatlarini oshiradi, xududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezkor taxlil qilish, markaziy davlat organlari qabul qilingan qonun va qarorlarning

bajarilishini o‘z vaqtida ta’minlash uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi.

Eng muximi, yuqori boshqaruv organlariga taaluqli vakolatlarning bir qismini maxalliy boshqaruv tizimiga beradi va ularning javobgarliklarini oshiradi.

1992 yil 4 yanvarda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida maxalliy hokimiyat organlarini qayta tuzish to‘g‘risida”gi qonun bilan Respublikamizda maxalliy hokimiyat organlari tizimida butunlay yangi organ - hokimlik va hokim lavozimi ta’sis etildi va uning vakillik organlariga xam boshchilik qilishi belgilab qo‘yildi.

Mazkur qonunda birinchi marta qonun me’yorlari darajasida maxalliy davlat organlari vakillik hokimiyati va ijro hokimiyatiga bo‘linishi mustaxkamlandi.

1991 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyaning 102 moddasida esa quyidagilar ta’kidlandi:

- vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab viloyat, tuman va shaxar hokimlari boshqaradi;

- viloyat hokimlari va Toshkent shaxri hokimi Prezident tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi xamda tegishli xalq deputatlari Kengash tomonidan tasdiqlanadi;

- tuman va shaxarlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi;

- shaxarlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shaxar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi xamda xalq deputatlari shaxar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Konstitutsiyaning moddasida esa, “Hokim o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida tegishli xududdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar qabul qiladi” deb ko‘rsatilgan.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Birinchi bob bo'yicha shuni xulosa sifaida ta'kidlash mumkinki, mahalliy o'zini o'zi boshqarish asoslarini konstitutsiya, qonunlarda ifodalangan va aholining mahalliy ahamiyatga molik vazifalarni qal qilish soqasidagi faoliyatining barcha tuzilmalar uchun eng muqim, umumiy xududiy, huquqiy, moliya-iqtisodiy asoslarini mustaqkamlovchi huquq me'yorlari majmui deb ta'riflash mumkin.

Huquqiy davlat printsiplariga muvofiq, mahalliy o'zini o'zi boshqarishni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar mufassal tartibga solingan taqdirdagina, aholi mahalliy o'zini o'zi boshqarish masalalarini samarali hal qilish sohasida mustaqil faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Davlat va jamiyat tuzilishining barqarorligi, respublika va mintaqaviy boshqaruv organlari mahalliy boshqaruv organlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilganligi, mahalliy o'zini o'zi boshqarishning o'ziga xos jihatlari o'zbek xalqining madaniyati va an'analariga qadimdan hosligi O'zbekiston Respublikasida mahalliy boshqaruv organlari shakllanishining o'ziga xos xususiyatlaridir.

O'zbekiston Respublikasida mahalliy faoliyatni tartibga solish zaruratining oshib borayotganligi iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan bir qator ob'ektiv omillar bilan belgilanadi.

Hududiy boshqaruvni takomillashtirishdan asosiy maqsad maxalliy-xududiy o'zini-o'zi boshqaruvni davlat boshqaruvi bilan uyg'un va muvofiq ravishda olib borish, boshqacha qilib aytganda, maxalliy boshqaruv organlarining mustaqilligini kuchaytirgan xolda ular faoliyatini markaziy davlat boshqaruv organlari tomonidan bilvosita nazorat qilishdir.

II BOB. FUNKSIONAL BOSHQARUV ORGANLARI FAOLIYATINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI. (DENOV TUMANI HOKIMIYATI MISOLIDA)

2.1. Surxondaryo viloyati Denov tumani hokimligining boshqaruv tashkiliy tuzilmasi va funksional vazifalari tahlili

Surxondaryo viloyati - O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1941 yil 6 martda tashkil etilgan (1925 yil 29 iyundan Surxondaryo okrugi bo'lgan). 1960 yil 25 yanvarda Qashqadaryo viloyati bilan qo'shilgan. 1964 yil 7 fevralda qaytadan tashkil qilindi. Respublikaning janubiy-sharqida, Surxon-Sherobod vodiysida joylashgan. Janubdan Amudaryo bo'ylab Afg'oniston, shimol, shimol-sharq va sharqdan Tojikiston, janub-g'arbdan Turkmaniston, shimol-g'arbdan Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh.

Hududi 20,1 ming km². Surxondaryo viloyatining tarkibida viloyatga bo'ysinuvchi 14 tuman (Angor, Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Muzrabot, Oltinsoy, Sariosiyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Shurchi, Qiziriq Qumqo'rg'on), 8 ta tumanga bo'ysinuvchi shaharlar (Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Termiz, Sharg'un, Sherobod, Sho'rchi, Qumqurg'on), 7 ta shaharcha (Angor, Do'stlik, Kakaydi, Sariosiyo, Sariq, Elbayon, Xurriyat), 114 qishloq fuqarolar yig'ini, 698 ta mahalla fuqarolar yig'ini va 847 ta qishloq aholi punktlari bor.

Markazi - Termiz shahri. Viloyat hokimligi apparatida jami 87 kishi faoliyat ko'rsatadi. Bular viloyat hokimi, hokimning besh yo'nalish bo'yicha o'rinbosarlari, ularning kotibiyatlari, axborot-tahlil guruhi, tashkiliy-nazorat guruhi, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati, harbiy safarbarlik va favqulodda vaziyatlar masalalari bo'yicha guruh, umumiy, bo'lim va ishlar boshqarmasidan iborat.

Viloyatda ijtimoiy sohaga ham alohida e'tibor berilmoqda bugungi kunda Surxondaryo viloyatida 848 ta umumta'lim maktablari 387 ta maktabgacha ta'lim muassalari, 109 ta o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari (5 ta akademik litsey, 104 ta kasb hunar kollejlari), 1 ta oliy o'quv yurti faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari sog'liqni saqlash sohasida 389 ta tibbiyot muassasalari 241 ta qishloq vrachlik punkti, 1 ta shahar vrachlik punkti, 72 ta davolash profilaktika

muassasalari aholiga tibbiy xizmat ko'rsatmoqda. Viloyatda 111 ta klub muassasasi, 2 ta muzey, 2 ta teatr, 16 ta bolalar musiqa va san'at maktablari, 2 ta kinoteatr va kino qurilmalar, 3 ta viloyat madaniyat va sport ishlari boshqarmasi tasarrufidagi hamda 15 ta shahar va tumanlar hokimliklari tasarrufidagi istirohat bog'lari aholiga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Shuningdek 1 ta Termiz hayvonot bog'i mavjud. Jami viloyatda 3994 ta jumladan, 523 ta sport zallari, 6 ta suzish havzalari, 59 ta tennis kortlar va 242 ta boshqa sport inshootlari mavjud bo'lib, aholining jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Denov tumani - Surxondaryo viloyatidagi tuman bo'lib, 1926 yilning 21 sentabrida tashkil etilgan. Denov tumani viloyatning Sho'rchi, Sariosiyo, Uzun, Oltinsoy tumanlari bilan chegaradosh bo'lib, maydoni 0,75 ming km². Aholisi 253,7 ming kishi (2000). Denov tumanida 1 shahar (Denov), 1 shaharcha (Do'stlik), 18 qishloq fuqarolari yig'ini (Anbarsoy, Binokor, Dahana, Denov, Kenagas, Navro'z, Pistamozor, Sina, Tortuvli, Xayrobod, Xolchayon, Farg'ona, Yurchi, Yangibog', Yangizamon, Yangiobod, Kiziljar, Hazorbog') bor. Markazi - Denov shahri hisoblanadi.

Denov tumanining shimol, jan. va markaziy qismi tekislikdan iborat. Sharqda Bobotog', g'arbda Boysuntog' tizmalari bilan o'ralgan. Aholining aksari qismi (89,5%) o'zbeklar, shuningdek, tojik, rus, tatar va b. millat vakillari ham yashaydi. 1 km² ga o'rtacha 337 kishi to'g'ri keladi.

Tuman sanoat korxonalari asosan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Paxta tozalash, yog' ekstraksiya, aroq-vino va pivo, konserva, sut, ta'mirlash-mexanika, gisht zavodlari, qurilish, neft mahsuloti korxonalari, paxta chuvish, kandolatchilik f-kalari, jami 38 sanoat korxonasi mavjud. Tadbirkorlarga karashli 200 ga yaqin kichik korxona faoliyat ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari: paxtachilik, bog'dorchilik, tokchilik, limon yetishtirish va b. Tog' etaklarida lalmikor dehqonchilik (asosan bug'doy va arpa) bilan shug'ullaniladi. 12,7 ming ga yerga paxta, 10,1 ming ga yerga g'alla ekiladi. Sug'oriladigan yerlar 24,7 ming ga. Yaylovlarda qoramol, qo'y (jumladan,

hisor qo'ylari) boqiladi. Tumanda 17 jamoa xo'jaligi mavjud. R.R. Shreder nomidagi Bog'dorchilik, tokchilik va vinochilik korporatsiyasining seleksiya stansiyasi joylashgan. Denov dendrariysi deb atalgan bu ilmiy laboratoriyada tabiatning 900 dan ziyod o'simligi, mevali o'simliklar (jumladan Yaponiyadan keltirilgan palma daraxti, magnoliya, xurmo, apelsin, yong'oq, boshqali o'simliklar) yetishtiriladi. Tuman hududidan xalqaro temir yo'l, Xo'jand—Dushanba, Termiz-Dushanba avtomagistral yo'li o'tgan. 87 umumiy ta'lim maktabi, gimnaziya, 2 litsey, 3 o'rta maxsus o'quv yurti, san'at, musiqa maktablari, 3 kasb-hunar maktabi, 58 ommaviy kutubxona (500 ming kitob), 46 klub, 2 madaniyat va istirohat bog'i, kasalxonalar, 13 qishloq vrachlik ambulatoriyasi, 6 qishloq"vrachlik punkti, 7 poliklinika, feldsher-akusherlik punktlari, 4 dispanser bor. Bu muassasalarda 3800 dan ziyod tibbiyot xodimlari ishlaydi.

Surxondaryo viloyati hamda Denov tumani hokimligining aniq funksional vakolatlari O'zbekiston Respublikasining "Maxalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 25 moddasida yanada batafsilroq keltirilgan:

- qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa xujjatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Maxkamasining xujjatlari, yuqori turuvchi organlar va tegishli xalq deputatlari Kengashi qarorlarining ijrosini tashkil etadi;

- jamoat tartibiga rioya etilishi va jinoyatchilikka qarshi kurash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, ularning xuquqlarini ximoya qilish va salomatligini muxofaza etish bilan bog'liq chora-tadbirlar ko'radi, tabiiy ofatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda xollarda tegishli ishlarni tashkil etadi;

- Viloyat, tuman va shaxarni iqtimodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, viloyat, tuman, shaxar byudjetining asosiy ko'rsatkichlarini va ularning ijrosiga doir xisobotlarni xalq deputatalari Kengashining tasdig'iga taqlim etadi;

- o'z o'rinbosarlari va ijroiya hokimiyati struktura bo'limlarining raxbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish to'g'risidagi qarorlarni xalq

deputatlari kengashi tasdig'iga taqdim etadi;

- hokimlik devoni bo'linmalari rahbarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

- quyi turuvchi hokimlarning qarorlarini, bosharti ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, qonunlarga va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa xujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Maxkamasi qabul qilgan xujjatlarga, shuningdek yuqori turuvchi xalq deputatlari kengashi va hokimning qarorlariga zid bo'lsa bekor qiladi va xalq deputatlari Kengashiga quyi turuvchi xalq deputatlari Kengashlarining xujjatlarini bekor qilish to'g'risida taqdimnoma kiritadi;

- rahbarlari tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan ijroiya hokimiyati struktura bo'linmalarining ishini nazorat qiladi;

- xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qilgan va chaqargan xujjatlarni bajarmaganliklari uchun mansabdor shaxslarni intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida qonunda belgilangan tartibda taqdimnoma kiritadi;


- davlat mukofatlari bilan taqdirlashga doir iltimosnomalarni qarab chiqadi va takliflar kiritadi;

- respublika va xorijda viloyat, tuman xamda shaxarning rasmiy vakili sifatida ish ko'radi;

- axolini qabul qilishni tashkil etadi, fuqarolarning imkoniyatlari, arizalari va takliflarini qarab chiqadi.

Bulardan tashqari, hokim rejalashtirish, byudjet, moliya, hisob-kitob, viloyat, tuman, shaxar mulkini boshqarish, mulkchilikning turli shakliga mansub korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan xamjixatlik qilish, qishloq xo'jaligi, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish, tabiatni muxofaza qilish, qurilish, transport, yo'l xo'jaligi va aloqa, axoliga kommunal, savdo va ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish, axolini sotsial ximoya qilish, qonuniylik, huquq-tartibot va xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muxofaza qilish sohasida qonun xujjatlarni ham xal etadi.

Surxondaryo viloyati hokimligi apparatining tashkiliy tuzilmasi



1-rasm.Surxondaryo viloyati hokimligi apparatining tashkiliy strukturasi⁷

Bo`linmalar faoliyati ularning rahbarlari tomonidan viloyat hokimining qarori bilan tasdiqlangan Nizomlar asosida tashkil etiladi.

Viloyat hokimligi apparati:

- sohalar va hududlarda o`tkazilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan maqsadli dasturlarning amalda bajarilishini ta`minlaydi;
- hokimlik muhokamasiga kiritilayotgan hujjatlar loyihalarini belgilangan muddatda ishlab chiqilishini tashkil qiladi. Yuqori tashkilotlar hamda hokim qaror va farmoyishlarining mahalliy boshqaruv organlari hamda idoralari tomonidan o`z vaqtida bajarilishini ta`minlaydi va nazoratini tashkil qiladi;

⁷ Surxondaryo viloyati Denov tuman hokimligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

- bo'lim, guruh va kotibiyat vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha tahliliy hujjatlarni tayyorlaydi va hokimlikka tushgan axborot, taklif va mulohazalarni umumlashtiradi. Viloyat hokimligi apparati bo'linmalari faoliyatiga viloyat hokimi va hokim o'rinbosarlari rahbarlik qiladi. Ularning ichki apparat va hujjatlar bilan ishlash borasidagi faoliyati tashkiliy-nazorat guruhi tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

2.2. Surxondaryo viloyati Denov tumanining ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili

Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini hamda iqtisodiy erkinlashtirish shart-sharoitida mahalliy byudjetlarni shakllanishi va ijrosini ta'minlashda mahalliy xokimiyat organlarining moliyaviy va xuquqiy rolini oshirish yo'nalishlarining ilmiy tadqiqi hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Biz bilamizki, byudjetlarning mustaqilligi byudjet tizimining asosiy tamoyili sifatida belgilangan bo'lib ushbu tamoyil turli darajadagi vakolatli hokimiyat organlarining o'zlariga berilgan vakolatlari doirasida byudjet jarayonini mustaqil ravishda amalga oshirish huquqlarini anglatadi. Har bir darajadagi byudjet daromadlarining o'z manbalari, shuningdek, joylardagi vakolatli hokimiyat organlarining qonunlarida belgilangan doiralarida mahalliy soliqlar va yig'imlar soliq stavkalarini o'zgartirish huquqini qonun asosida mustahkamlab qo'yilgan.

Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini hamda iqtisodiy erkinlashtirish shart-sharoitida mahalliy byudjetlarni shakllanishi va ijrosini ta'minlashda mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy va huquqiy rolini oshirish hozirda dolzarbdir.

Quyida biz Surxondaryo viloyati Denov tumani hokimligining ba'zi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Sanoat mahsulotlari 2013 yili 154,5 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, bu o'tgan 2012 yilning 122,6 mlrd. so'm ko'rsatkichiga nisbatan 110 % o'sish sur'atini ko'rsatmoqda, 2014 yili esa bu ko'rsatkich 187,7 mlrd. so'mni tashkil etib bu 2013 yil ko'rsatkichiga nisbatan 112,9 % yuqori ko'rsatkichni ifodalamoqda.

1-jadval

2012-2014 yillardagi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar⁸

Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Hajmi			O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %		
		2012 y.	2013 y.	2014 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.
Sanoat mahsulotlari	mlrd. so'm	122.6	154.5	187.7	92.4	110	112.9
Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish	mlrd. so'm	96.7	125.0	151.9	92.1	115	110.1
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	mlrd. so'm	297.3	414.5	443.1	108.9	106.0	106.1
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi	mlrd. so'm	64.4	85.6	112.1	112	115.1	115.3
shu jumladan chet el investitsiyalari	ming AQSH doll.	0	0	0	0	0	0
shundan to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari	ming AQSH doll.	0	0	0.	0	0	0
Qurilish-pudrat ishlari	mlrd. so'm	40.02	75.4	101.3	120.6	129.2	104.80
CHakana tovar aylanmasi	mlrd. so'm	498.8	575.6	886.9	112.7	116.1	121.8
Jami xizmatlar hajmi	mlrd. so'm	377.8	432.1	579.6	122.0	120.6	123.8
Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish	mlrd. so'm	82.339	122.8	128.8	109.3	118.6	113.5
Tashqi savdo aylanmasi	ming AQSH doll.	22610.7	17498.9	18307.6	99.8	77.4	105.8
Eksport	ming AQSH doll.	19195.1	13347.8	16640.8	94.6	69.5	127.9
Import	ming AQSH doll.	338.8	345.6	1666.8	144.5	102.2	40.2
Qo'shma korxonalar soni	Birlik	2	2	3	X	X	X

Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishi 125,0 mlrd. so'm bo'lib o'tgan 2012 yilga nisbatan 115 % yuqori ko'rsatkichni ko'rsatmoqda, shu bilan birga, bu ko'rsatgich 2014 yili 151,9 mlrd. so'mni ko'rsatib o'tgan yilga nisbatan 110,1 %ni yuqori o'sishni ifodalab, lekin o'tgan 2013 yil nisbatiga ko'ra 5% kam

⁸ Denov tumani hokimligi ma'lumotlari.

ko'rsatgichni ifodalamoqda. Jami xizmatlar hajmi 2012 yili 377,8 mlrd. so'mni tashkil etib, bu ko'rsatgich 2013 yili 432,1 mlrd. so'mni bermoqda, ya'ni 122,0 %ga oshgan nisbat, 2014 yili esa bu ko'ratgich 579,6 mlrd so'mni tashki etib 2013 yilga nisbatan 123, % oshgan ko'rsatkichni ifodalaydi.

2-jadval

2012-2014 yillarda sanoat korxonalari hamda mahsulotlari dinamikasi⁹

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Miqdori		
		2012 yil	2013 yil	2014 yil
Sanoat mahsuloti	Mrld. so'm	128.6	149.8	187.3
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	112.3	110	112.9
Aholi jon boshiga	ming so'm	371.5	446.4	535.4
Hududiy sanoat korxonalari hajmi	mln. so'm	32603	42056	51.0
Jami sanoat hajmidagi ulushi	%	25.5	28.1	
Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari	birlik	222	234	236
shundan hajmsizlar soni	birlik	14	14	12
Kichik biznesning sanoatdagi ulushi	%	25.2	26.9	32.0
Korxonalar soni	birlik	226	238	240
shundan: yirik korxonalar	birlik	4	4	4
Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari	mln. so'm	108	125	151.9
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	112.6	115	110.1
Aholi jon boshiga	ming so'm	313.9	361.2	434
Oziq-ovqat mahsuloti	mln. so'm	39.7	48.6	65.4
Nooziq-ovqat mollari	mln. so'm	65.8	70.0	79.7
shu jumladan engil sanoat mollari	mln. so'm	5.2	6.4	6.8

2014 yilda tumanimizda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida o'sish sur'atlarini ko'rishimiz mumkin. Xususan: sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish hajmi 187,3 foizga o'tgan 2013 yilga nisbatan sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish 149.8 foizga o'sishini ko'rishimiz muki.

Buning asosiy manbasi sifatida tumanda mavjud bo'lgan 4 ta yirik va 191 ta kichik sanoat korxonalarining doimiy faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlarni yaratish bilan bir qatorda yirik sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish xajmlarini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Sanoat 2015 yilda solishtirma narxlarda sanoat maxsulotlari ishlab chiqraish

⁹ Denov tumani hokimligi xisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

hajmi 254.6 mlrd. so'mni tashkil qilib, utgan yilning shgu davriga nisbatan 112.2 foizga o'sgan (prognoz 108.2%).

3-jadval

2015 yil uchun belgilab berilgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi quyidagicha bajarildi:¹⁰

№	2015 yil uchun berilgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar 2014 yilga nisbatan (%da) prognozi	2015 yil	2015 yil prognozi
1	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	112,2	108,2
2	Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish	111,5	111,5
3	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	107,7	106,1
4	Kapital qo'yilmalari xajmi	103,1	102,0
5	Chakana savdo	119,1	116,9
6	Jami xizmatlar	118,2	120,1
7	Pullik xizmatlar hajmi	109,9	118,9

Ishlab chiqarish hajmi prognozga nisbatan 12.1 mlrd. so'mga ko'paygan.

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat maxsulotlari hajmi 704.7 ming so'mni tashkil qildi. 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni 195 ta, shundan 4 ta yirik, 191 ta kichik korxonalar.

Kichik sanoat korxonalarining 20 tasi yengil sanoat, 52 tasi qurilish materiallari ishlab chiqarish, 1 tasi charim poyavzal, 40 tasi oziq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqarish va 78 tasi boshqa soxalardagi sanoat korxonalaridir.

Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish. 2015 yil davomida jami ishlab chiqarilgan xalq istemoli mollari hajmi 156.9 mlrd. so'mni tashkil qildi va 111.5 foizga o'sishi ta'minlagan (prognoz 111.5 foiz).

Hududiy sanoat korxonalari tomonidan yil davomida 103.6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va 119.8 foizga o'sishi ta'minlandi 2015 yil davomida ishlab chiqarilgan yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 566.94 mlrd. so'mni tashkil qilgan holda 107.7 foizga o'sgan.

Kapital qo'yilmalar Maqsadli dasturlarning sanoat yo'nalishida reja 740 ta

¹⁰ Denov tumani hokimligi xisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

bo'lib amalda 795 ta ish o'rinlari yaratilgan holda 107.4 foizga, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishda reja bo'yicha 166 ta bo'lib amalda 100 foizga va qishloq xo'jaligi yo'nalarilshida 466 ta ish o'rinlari tashkil qilinib reja 100 foizga bajarildi.

Tuman boshqaruv organlarining funksional vazifalaridan biri – bu byudjet nazoratini olib borish hisoblanadi.

O'zbekistonda byudjet tizimida taraqqiyotining hozirgi bosqichida byudjet va ijtimoiy siyosatning manfaati birligini ta'minlash asosidagi o'ta ma'suliyatli vazifalarni samarali boshqarishni talab etadi, bu vazifaning 2 jihatini ajratish muhim:

- birinchidan, davlat ijtimoiy siyosatning joylardagi ijobiy ijrosi yoki hududiy iqtisodiyot muomalari keskinlashuvining oldini olish.

- ikkinchidan, mahalliy byudjetlar huquq va majburiyatlarining kengayib borishi sharoitida shunga mos tarzda ular imkoniyatlarini yaxshilash zarurligi. Bu jihatlarning o'zaro bog'liqlikda olib borilishi sharoitida shunga mos tarzda ular imkoniyatlarini yaxshilash zarur.

2.3. Surxondaryo viloyati Denov tumanida 2015 yil davomida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida amalga oshirilgan ijtimoiy – iqtisodiy islohatlar tahlili

Surxondaryo viloyati Denov tumani 1926 yilning 29 sentyabrida tashkil topgan.

Tumanning umumiy yer maydoni 1,13 ming kv.kilometrni tashkil etadi. Tumanda aholi yashash punktlari soni 124 ta, shundan shaxar aholi yashash punktlari soni 31 ta, shaxarchalar soni 12 ta, qishloq aholi yashash punktlari soni 115 ta. Qishloq fuqarolar yig'inlari soni 18 ta, mahalla fuqarolar yig'inlari 109 ta.

2016 yilning 1 yanvar holatiga kelib, tumanda doimiy yashovchi aholi soni 361166 kishini tashkil etib 2015 yil davomida 9615 ta tug'ilish va 1511 ta o'lim qayd etilgan.

Tuman xududida davlat ruyxatiga olingan yuridik maqomga ega bo'lgan su'bektlar soni 2912 tani va yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga

oshiruvchi sub'ektlar soni 2153 tani tashkil qiladi.

Yuridik maqomga ega bo'lgan sub'ektlar tarkibi quyidagicha:

- yirik sanoat korxonalari soni - 4 tani;
- yirik transport xizmati kursatuvchi korxonalar - 1 tani;
- yirik kurilish korxonalari - 1 tani;
- kushma korxonalar soni – 3 tani;
- kichik korxona va mikrofirmalar soni -1856 tani
- fermer xo'jaliklari soni -614 tani

Tuman xududida 6 ta asosiy bank bo'limlari va 5 ta kichik bank bo'limlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Tumandagi ijtimoiy soxa inshootlari tarkibi quyidagicha :

- Kasb xunar kolledjlari -14 ta;
- Akademik litsey – 1 ta;
- Maktablar –92 ta;
- Bolalar bog'chalari – 28 ta
- Tibbiyot muassasalari – 9 ta (935 o'rinli);
- Ambulatoriya poliklinika muassasalari soni - 40 ta;
- Qishloq vrachlik punkti – 35 ta.

Tuman aholisiga tibbiyot muassasalarida 549 nafar oliy ma'lumotli vrachlar va 2877 nafar o'rta ma'lumotli meditsina xodimlari hamda 18 nafar xususiy vrachlik faoliyati bilan shug'ulanuvchi meditsina xodimlari xizmat ko'rsatmoqda.

Tumanda maktab, maktabgacha ta'lim muassasalari va maktabdan tashqari muassalarining tarkibi quyidagicha.

Maktab muassasalari soni - 92 ta bo'lib, bular 9 yillik maktablar hisoblanadi. Maktablarda 53278 - 54707 nafar o'quvchilar taxsil oladi.

Maktab muassasalarida 4638 ta o'qituvchilar ta'lim berib kelmoqda, shundan 3044 nafar oliy ma'lumotli, 1594 nafari o'rta maxsus ma'lumotga ega.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari va musiqa maktablari soni - 7 ta ulardagi o'quvchilar soni 3775 nafarni tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lim muassaslari (bog'chalar) soni 28 ta, ulardagi

tarbiyalanuvchilar 3200 nafar bo'lib, shundan 1768 nafari qiz bolalardir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida 176 nafar tarbiyachilar faoliyat ko'rsatadi. Tarbiyachilarning 31 nafari oliy ma'lumotli 145 nafari o'rta ma'lumotga ega.

Ixtisoslashtirilgan maktab internatlari soni 6 ta, ulardagi o'quvchilar soni 1429 nafarni tashkil qiladi.

Pensionerlar soni 28570 ta, shundan nogironligi bo'yicha pensionerlar 2831 ta, yoshga doir pensionerlar 20550 tani, ishlovchi pensionerlar 540 ta, ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslar soni 3107 nafarni tashkil qildi.

Tuman aholisining 2016 yil 1-yanvar xolatiga ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 99.2 foizni va tabiiy gaz bilan ta'minlanish darajasi 67,5 foizni tashkil qildi.

Tumanning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari. 2015 yilning yanvar-dekabr oylari davomida tumanda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar natijasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida belgilangan prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan xamda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish suratlari ta'minlandi.

Tumanda 2015 yilning yanvar - dekabr oylarida amaldagi narxlarda 254571.9 mln. so'mlik sanoat maxsuloti ishlab chiqarilib o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirma narxlarda 112.2 foizga o'sishiga erishildi.

Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish xajmi 156972.4 mln. so'mni tashkil qilgan xolda 111.5 foizga o'sdi.

Yalpi qishloq xo'jaligi maxsulotlari ishlab chiqarish hajmi 566922.6 mln. so'mni tashkil qildi va qiyosiy narxlarda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107.7 ga o'sishi ta'minlandi.

Qurilish soxasida, moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan amalga oshirilgan kapital qo'yilmalar hajmi 114356.9 mln. so'mni tashkil qildi va 103.1 foizga o'sishga erishildi. Pudrat ishlari miqdori shartnomaviy narxlarida 125496.5 mln. so'm miqdorida amalga oshirildi va 116.0 foizga o'sdi.

Aholiga xizmatlar ko'rsatish xajmida ham barqaror o'sish suratlari ta'minlandi. Hisobot yilida ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmi 685190.5 mln. so'mga teng bo'lgan xolda xizmatlar hajmi 118.2 foizga o'sdi.

Pullik xizmatlar ko'rsatish 158844.2 so'mni tashkil qilgan xolda 109.9 foizga o'sib, aholi jon boshiga 439.8 ming so'mdan to'g'ri kelgan bo'lsa, maishiy xizmatlar ko'rsatish xajmlari ham o'tgan yilga nisbatan 114.1 foizga o'sishi ta'minlandi va aholi jon boshiga ko'rsatilgan maishiy xizmatlar xajmi 86116 so'mdan to'g'ri keldi.

Joriy yil davomida rejalashtirilgan 54 ta savdo va xizmat ko'rsatish ob'ektlari qurilib foydalanishga topshirildi.

Moliya va kredit. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-2270-sonli qarori ijrosini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, byudjet, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va byudjetdan tashqari maktab jamg'armalariga jalb etilishi lozim bo'lgan tushumlar rejasi quydagicha bajarildi.

Yanvar-dekabr oylari uchun belgilangan soliq va majburiy to'lovlar prognoz rejasi 110 mlrd. 314,5 mln. so'm qilib belgilangan bo'lib, amalda 112 mlrd. 553,1 mln. so'm miqdorida soliq va majburiy to'lovlar amalga oshirildi xamda belgilangan prongoz reja 102,0 foizga bajarildi.

Byudjetdan tashkari Pensiya jamgarmasiga 2015 yil uchun belgilangan prognoz reja 77712,9 mln. so'm bo'lib, xaqiqatda 62813,2 mln. so'mga (80,8 foizga) bajarilidi.

Respublika yo'l jamg'armasiga 2015 yil davomida tushurilishi lozim bo'lgan mablag'lar rejasi 7723,7 mln. so'm bo'lib, amalda 5046,8 mln.. so'm 69,9 foizga bajarildi.

Byudjetdan tashqari maktab jamg'armasi bo'yicha 2015 yil uchun belgilangan prognoz reja 2685,4 mln. so'm belgilangan bo'lib, xaqiqatda 2107,5 mln. so'mga bajarildi, reja 78,5 foizga bajarilgan .

Tuman maxalliy byudjetining daromadlar rejasi 39 mlrd. 26,0 mln. so'm bo'lib, o'tgan 12 oy davomida tuman maxalliy byudjetiga 40 mlrd. 40,0 mln. so'm miqdorida mablag'lar tushirilishiga erishildi. Tuman maxalliy byudjetiga 1014

mln.. so'm miqdorida rejadan ortiq mablag''lar undirildi.

Maxalliy byudjetning daromadlar qismiga respublika byudjetidan olingan sub'ventsiya miqdori 75,2 mlrd.. so'mni tashkil qildi.

Hisobot davrida tuman tijorat banklari tomonidan jami 78066,8 mln. so'm miqdorida kredit mablag''lari ajratilgan xolda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 140,5 foizga o'sishi ta'minlandi. Ajratilgan kredit mablag''larining 40216,0 mln. so'mi kichik biznes sub'ektlariga ajratildi xamda ushbu ajratilgan kredit mablag''larining 15128,7 mln. so'mini qisqa muddatli kreditlar va 25087,3 mln. so'mini uzoq muddatli kreditlar tashkil qildi. Hisobot yilida davlat ehtiyojlari uchun yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi maxsulotlari uchun 24717,7 mln. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar. 2015 yil davomida tumanda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan tashqi savdo aylanmasi 17498,9 ming AQSh dollarini tashkil qilgan holda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 77,4 foizga teng bo'ldi.

Amalga oshirilgan tashqi savdo aylanmasining 13347,8 ming AQSh dollari miqdoridagi maxsulotlar eksporti tashkil qilib, 69,5 foiziga teng bo'ldi. Hisobot davrida 4151,1 ming AQSh dollari miqdorida maxsulot import qilingan holda bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 121,5 foizga o'sdi.


Tashqi savdo aylanmaning ijobiy saldosi 9196,7 ming AQSh dollarini tashkil etdi. Tumanda eksport maxsuloti jami 13347,8 bo'lib, shundan: - Tola 13315,7 ming AQSh dollarini tashkil etadi.

Tuman xududiga tashqi davlatlardan mahsulot kiritish salmog'i tashqi savdo aylanmasining umumiy hajmining 23,7 foizini tashkil qildi va hisobot yilida amalga oshirilgan IMPORT xajmi 4151,1 ming AQSh dollarga teng bo'ldi.

Qo'shma korxonalar faoliyati. Joriy yilning yil yakuni bilan tuman xududida 3 ta qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Joriy yil davaomida 165.2 mln. so'm miqdorida sanoat maxsulotlari ishlab chiqarilgan.

Ushbu qo'shma korxonalarda xozirda jami 17 kishi faoliyat yuritib kelmoqda. Qo'shma korxonalarning nizom jamg'armasi 512,0 ming AQSh

dollarini tashkil etdi.



2-rasm. Denov tumani eksport va import darajasi¹¹ (% da)

Sanoat. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi solishtirma narxlarda 149,0 mlrd.. 852,0 mln.. so'mni tashkil qilib o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,0 foizga o'sishi ta'minlandi (prognoz 109,9%)

Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish hajmi 125,0 mlrd. so'mni tashkil qilgan holda 115,0 foizga o'sishi ta'minlandi.

Hisobot davrida yirik sanoat korxonalari tomonidan 107,8 mlrd. so'mlik sanoat maxsulotlari ishlab chiqarildi va o'sish surati 107,0 foizni tashkil qildi.

Jumladan: "Surxonoziqovqatsanoati" hissadorlik jamiyatiga o'tgan 12 oy davomida sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish hajmi 53.5 mlrd.. so'mni tashkil qilgan xolda 95.2 foizga erishildi.

"Denov vino aroq" x/j da sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish hajmi 11,6 mlrd. so'mni tashkil qilgan holda ishlab chiqarish hajmi solishtirma narxlarda 86,3 foizni tashkil qilgan (korxonada joriy yilda loyixa qiymati 1770,0 mln. so'm bo'lgan uzumni qayta ishlash va vino mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi olib kelingan va modernizatsiya qilinganligi sababli yil davomida vino mahsulotlari ishlab chiqarilmagan)

"SAVB" MChJda joriy yil davomida 10,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan va ishlab chiqarish hajmi 103,0 foizga o'sgan.


¹¹ O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati Denov tumani 2015 yil yakunlari bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlarining ma'lumot va tahlillari. Denov t. 2016 yil.

“Xayrobod paxta” xissadorlik jamiyati tomonidan yil davomida 69,2 mlrd. soʻmlik sanoat maxsulotlari ishlab chiqarilgan holda 127,8 foizga oʻsishi taʼminlangan.

Hisobot davrida Yordamchi xoʻjaliklar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi solishtirma narxlarda 75,1 foizni tashkil qilib 1,23 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari kam ishlab chiqarilgan.

Hisobot davrida yanvar-dekabr oylarining 2014-2015 yillida Yordamchi xoʻjaliklar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 10037,0 tonna tola (72,0 foiz), 15352,0 tonna chigit (73,0 foiz), 14883,0 tonna qora yogʻ (110,0 foiz), 13211,0 tonna ohorlangan yogʻ (111,0 foiz), 35676,0 tonna shrot (108,0 foiz), 24581,0 tonna sheluxa (109,0 foiz), 3600,0 tonna sovun (103,0 foiz) kam ishlab chiqarilgan.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 452152 soʻmdan va xalq isteʼmoli mollari ishlab chiqarish hajmi 412586 soʻmdan toʻgʻri keldi.



3-rasm. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning oʻsishi (yanvar - dekabr oylaridagi koʻrsatkichlari) ¹²

Isteʼmol mollari ishlab chiqarish. 2015 yil yakunida tumanning asosiy hamda yordamchi sanoat korxonalari tomonidan xalq isteʼmoli mollarini ishlab chiqarish

¹² Oʻzbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati Denov tumani 2015 yil yakunlari boʻyicha iqtisodiy koʻrsatkichlarining maʼlumot va tahlillari. Denov t. 2016 yil.

hajmi amaldagi narxlarda 125002,4 mln. so'mga yetdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 115,0 foizga o'sishiga erishildi. Jami ishlab chiqarilgan xalq iste'moli mollari hajmining 88801,0 mln. so'm miqdoridagi qismi asosiy sanoat korxonalari tomonidan, 1553,4 mln.. so'mlik xalq istemoli mollari yordamchi sanoat korxonalar tomonidan, 7809,3 mln.. so'm miqdoridagi iste'mol mollari kichik korxonalar tomonidan va 26838,7 mln.. so'mi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan.


Ishlab chiqarilgan iste'mol mollari hajmining 48611,1 mln.. so'mligi yoki jamiga nisbatan 38,9 foizini oziq-ovqat mahsulotlarini tashkil qiladi.

Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi "Surxonoziqovqatsanoat" X/Jda 101.4 foiza, "Denov vino aroq" hissadorlik jamiyatida 92.6 foizga, "SAVB" mas'uliyati cheklangan jamiyatida 113.4 foizga, "Xayrabod paxta tozalash" hissadorlik jamiyatida 91.8 foizga o'sishga erishildi.

Tumandagi korxonalarda 22 turdagi iste'mol mollari ishlab chiqarilgan bo'lib, shu jumladan tikuvchilik mahsulotlari, xo'jalik sovuni, o'simlik yog'i, ma'danli suv, meva sharbatlari, spirtli ichimliklar, qandolat mahsulotlari, non va non mahsulotlari, go'sht, sut mahsulotlari, konservalar, kolbasa ishlab chiqarildi.

Qishloq xo'jaligi. Tumanda agrar soxada amalga oshirilgan iqtisodiy islohatlar o'zining yuqori samarasini berdi. 2015 yilda tuman bo'yicha 537032.7 mln.. so'mlik yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va mazkur tarmoqdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmi taqqoslama baholarda 107.7 foizga o'sdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarning 330400.4 mln.. so'mini dehqonchilik mahsulotlari va 206632.3 mln. so'mlik chorvachilik mahsulotlari tashkil qildi.

2015 yakuniy hisob-kitoblariga ko'ra jami tuman bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari soni 614 tani va ular ixtiyorida bo'lgan jami yer maydonlari 102595,0 gektarni tashkil qildi. Fermer xo'jaliklarida band bo'lgan aholi soni 15132 kishiga etdi.



4-rasm. Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish (yanvar – dekabr oylaridagi ko'rsatgich)¹³

Yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon xo'jaliklarining ulushi 63,8 foizni, fermer xo'jaliklarining ulushi 36,2 foizni tashkil qildi.

Yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash dasturi. 2015 yil davomida dastur asosida jami 6401 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan bo'lib, amalda 6571 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi va belgilangan reja 107,7 foizga bajariladi. Yaratilgan yangi ish o'rinlari quydagi manbalar hisobidan tashkil qilindi


Yangi ishlab chiqarish ob'ektlarini ishga tushirish hisobidan 1578 ta ish o'rinlari yaratilib reja 100,3 foizga (reja 4 ta). Ushbu ish o'rinlarining 894 tasi sanoat yunalishida, 171 ta xizmat ko'rsatish tarmoklarini rivojlantirish va yangidan tashkil qilish xisobidan hamda 470 tasi tumanda fermer xo'jaliklari va

kishlok xo'jalik korxonalarida chorvachilik, parandachilik, bogdorchilik, balikchilik, asalarichilikda xo'jaliklarini rivojlantirish xisobidan 470 ta ish o'rinlari ashkil qilindi.


Joriy yilda tumanimiz bo'yicha 68663,0 tonna don ishlab chiqarildi va har

¹³ O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati Denov tumani 2015 yil yakunlari bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlarining ma'lumot va tahlillari. Denov t. 2016 yil.

gektar yer maydonidan olingan hosil 65,0 tsentnerni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan boshqoli donning 214,0 tonnasi qishloq xo'jaligi korxonalarida, 62032,0 tonna fermer xo'jaliklarida va 6415,0 tonnasi dehqon xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi.



5-rasm. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarining o'sish diagrammasi¹⁴



6-rasm. Tumanda ishlab chiqarilgan donning tarmoqlar bo'yicha taqsimoti diagrammasi¹⁵

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati Denov tumani 2015 yil yakunlari bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlarining ma'lumot va tahlillari. Denov t. 2016 yil.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati Denov tumani 2015 yil yakunlari bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlarining ma'lumot va tahlillari. Denov t. 2016 yil.


Davlatga g'alla sotishdan olingan daromad 15397,0 mln.. so'mni tashkil qildi. Sotilgan boshqoli donning 54,3 mln.. so'mi qishloq xo'jaligi korxonalari zimmasiga, 15342.7 mln.. so'mi fermer xo'jaliklari zimmasiga to'g'ri keldi.

Joriy yil damomida davlatga paxta sotish sharnomaviy rejasi 40412,0 tonna bo'lib, amalda 41604,0 tonna paxta xom ash'yosi sotildi va belgilangan reja 102.9 foizga bajarildi.

Dexqonchilik tarmoqlari, ya'ni kartoshka ishlab chiqarish xajmi 39051,0 tonnani tashkil qilib o'tgan yilga nisbatan 110,1 foizga, sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish 130354.0 tonnani tashkil qilgan holda 111.9 foizga, poliz maxsulotlari ishlab chiqarish 23126 tonnani tashkil qilib 119.4 foizga, meva ishlab chiqarish 23636,0 tonnani tashkil qilib 106,8 foizga va uzum ishlab chiqarish 23392 tonnani tashkil qilib 104.1 foizga utgan yilga nisbatan o'sishi ta'minlandi.

2015 yilda chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish yo'nalishi bo'yicha 34 ta loyixa amalga oshirilgan holda chetdan 161 bosh nasilli qoramollar olib kelindi. Parrandachilik yo'nalishida 5 ta, asalarichilik yo'nalishi bo'yicha 3 ta va baliqchilik yo'nalishi bo'yicha 10 ta loyixalar amalga oshirildi. Hisobot yilida go'sht ishlab chiqarish 21820 tonnani tashkil etib, 107,3 foizga, sut ishlab chiqarish 126171 tonnani tashkil qilgan holda 108.5 foizga, tuxum ishlab chiqarish 24648 mln.. donani tashkil qilgan holda 198.6 foizga, jun ishlab chiqarish 155,0 tonna tashkil qilgan holda 102,0 foizga o'sishi ta'minlandi.

Yirik shoxli qoramollar soni 172875 boshni tashkil qilib o'tgan yilning shu davriga nisbatan 114.7 foizga, shu jumladan sigirlar soni 45752 boshni tashkil qilib 100.0 foizga, qo'y va echkilar bosh soni 185700 boshni tashkil qilgan holda 102.4 foizga, otlar bosh soni 3055 boshni tashkil qilgan holda 100.1 foizga, parranda bosh soni 381.8 ming boshni tashkil qilgan holda 184.9 foizga ko'paydi. Chorvachilik mahsulotlarining mo'l ko'lligi, chorva mollarining maxsuldorligiga bog'liq bo'lib, yil yakuniga kelib o'rtacha xar bir sigirdan 2407,0 kilogrammdan sut sog'ib olishga erishildi.



7-rasm. Chorva mahsulotlarining o'sish dinamikasi¹⁶

Markazlashtirilgan investitsiyalarning 1852,9 mln. so'mi byudjet mablag'lari hisobidan, 5074,0 mln. so'mi byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari hisobidan va 735,6 mln. so'mi hukumat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlari hisobidan amalga oshirildi.

Hisobot yilida 110,9 ming kv.metr uy-joylar 8.8 km ichimlik suv tarmoqlari tortildi. Joriy yil davomida investitsiya dasturi asnosida tumandagi 40 sonli maktab binosida mukammal ta'mirlash ishlari amalga oshirilishi natijasida 365.3 mln. sumlik tamirlash ishlari amalga oshirilgan bulsa Xayrobod KFY shamoli mahallasida Kurilish va kommunal xujaligi KXX ning loyixa qiymati 2665.8 mln. sum bo'lgan filial binosi va Denov tuman Kishlok xo'jalik KXX ning loyixa qiymati 437.2 mln. so'm bulgan 30 o'rinli o'quv ishlab chikarish binolari yangidan ko'rib foydalanishga topshirildi.

Tumandagi Xazarbog Iktisodiyot KXX binosi kapital ta'mirdan chiqarildi va 394.0 mln. so'm miqdoridagi mablag' o'zlashtirildi.

Joriy yilda aholini ichimlik suvi bilan taminlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi, jumladan Jamatak mahallasida 90.2 mln. so'm, Gulobod mahallasida 198.4 mln. so'm, Obodon mahallasida 179.7 mln. so'm, Katta Qarshi mahallasida 222.3 mln. so'm, Yangi qishloq mahallasida 192.6 mln. so'm va B.Yusupov mahallasida 104.8 mln. so'm mikdorida byudjet mablag'lari hisobidan

¹⁶O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati Denov tumani 2015 yil yakunlari bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlarining ma'lumot va tahlillari. Denov t. 2016 yil.

sarflangan holda suv quvurlari tortildi.

Hizmat ko'rsatish va servis soxasini rivojlantirish dasturi asosida joriy yil davomida 51 ta savdo va umumiy ovqatlanish hamda xizmat ko'rsatish shaxobchalari tashkil qilinishi belgilangan bo'lib, amalda 54 ta savdo va umumiy ovqatlanish hamda xizmat ko'rsatish shaxobchalari foydalanishga topshirildi.

Savdo, pullik xizmat va maishiy xizmat soxasi. Tumanda hisobot davrida 665 mlrd. 973 mln. so'mlik chakana savdo aylanmasi amalga oshirilgan xolda o'tgan yilning shu davriga nisbatan, solishtirma narxlarda 116,1 foizga o'sishi ta'minlandi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo aylanmasi hajmi 229,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi va solishtirma narxlarda 117,1 foizni, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmi 108,9 mlrd. so'mni tashkil qilib, 113,2 foizni va uyushmagan aholi tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi 327,2 mln. so'mni tashkil qilgan 117,2 foizga o'sishi ta'minlandi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan chakana savdo xajmi 1924.2 ming so'mni tashkil qildi.

Pullik xizmatlar ko'rsatish xajmi 122 mlrd. 881,6 mln. so'mni tashkil qildi va solishtirma narxlarda 118,6 foizga o'sishi ta'minlandi. (prog. 116,0 foiz.)

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar hajmi 355,0 ming so'mdan to'g'ri keldi.

Maishiy xizmatlar ko'rsatish hajmi 22,2 mlrd. so'mni tashkil qilgan holda solishtirma narxlarda 126,1 foizga o'sishi ta'minlandi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan maishiy xizmatlar hajmi 64,2 ming so'mdan to'g'ri keldi.

Xizmat ko'rsatish soxasi. Hisobot davrida ko'rsatilgan xizmatlar xajmi 432 mlrd. 105,7 mln. so'mni tashkil qildi va o'sish surati 120,6 foizni tashkil qildi, (prognoz 120,4 foiz)ga.

- Savdo xizmati 161 mlrd. 430,2 mln. so'mni tashkil qilib, 118,3 foizga;

- Transport xizmati ko'rsatish xajmi 122 mlrd. 678,2 mln. so'mni tashkil qilib

113,0 foizga;

- Aloqa xizmati 22,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, 135,6 foizga;
- Moliya va bank xizmati 17,6 mlrd. so'mni tashkil qilib, 147,2 foizga;
- Mexmonxona xizmati 263,1 mln. so'mni tashkil qilib, 106,7 foizga;
- Maishiy xizmatlar 25,5 mlrd. so'mni tashkil qilib, 121,3 foizga;
- Ta'lim xizmati 5,6 mlrd. so'mni tashkil qilib, 156,6 foizga;
- Sog'likni saqlash xizmati 2,1 mlrd. so'mni tashkil qilib, 124,7 foizga;
- Qurilish xizmatlari 12,1 mln. so'mni tashkil qilib, 132,4 foizga;
- Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish 228,6 mln. so'mni tashkil qilib,

100,0 foizga;

- Boshqa xizmatlar ko'rsatish 55,9 mlrd. so'mni tashkil qilib 127,1 foizga o'sdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1248,5 ming so'mdan to'g'ri keldi.

Investitsiya dasturi. 2015 yil davomida tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturiga asosan jami 162 ta loyixa amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, ushbu loyixalarning amalga oshirilishi uchun 55,3 mlrd.. so'm miqdoridagi mablag'lar sarflanishi hamda dastur amalga oshirilishi natijasida 1886 ta yangi ish o'rinlarini tashkil etilishi belgilandi.

Joriy yil davomida dastur asosida jami 165 ta loyixalar amalga oshirildi va foydalanishga topshiriladi. Jumladan 34 tasi sanoat yo'nalishidagi loyixalar (reja 31 ta), 46 tasi xizmat ko'rsatish yo'nalishidagi loyixalar (reja 42 ta) va 85 tasi qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi loyixalar (reja 85 ta) to'liq foydalanishga topshiriladi.

Sanoat yo'nalishidagi loyixalarni amalga oshirilishi natijasida tumanimizda bir qator yangi turdagi maxsulotlari ishlab chiqarilishi yo'lga quyildi, jumladan "Xayrobod Xitoy" qushma korxonasi yangidan tashkil etilib zamonaviy pishgan g'isht ishlab chikarish loyixasi amalga oshirildi va 36 ta yangi ish o'rinlari tashkil kilindi, shuningdek "Xidoyatullo Ali" MChJ da TIF Milliy bankining 800,0 mln. so'm imtiyozli kredit mablag'lari o'zlashtirilgan holda Eron texnologiyasi asosida

zamonaviy tosh saralash va maydalsh texnologiyalari olib kelindi “Denov Vino Aroq” hissadorlik jamiyatida loyixa qiymati 3000,0 sum bo’lgan arok qadoqlash va vino qadoqlash linyalari yangidan olib kelindi. Xuddi shuningdek qishloq xo’jaligi va xizmat ko’rsatish tarmoqlarida ham bir necha o’nlab yiriq loyixalar amalga oshirildi.

Ishlamayotgan korxonalar faoliyatini tiklash, ya’ni yuridik maqomga ega bulgan molyaviy xolati yoki boshqa sabblarga ko’ra yuz faoliyatini to’xtatgan korxonalar faoliyati komissiya tomondan urganlib ularni kayta tiklash natijasida korxonalarda 43 ta yangi ish o’rinlari tashkil kilindi.

Tijorat banklarining kichik korxona va mikrofirmalarni tashkil kilish va ularni rivojlantirish hisobidan ajratiladigan kredit mablag’lari xisobidan yil davomida 2374 ta ish o’rinlari yaratilishi belgilangshan bulib amalda 1818 ta ish o’rinlari tashkil kilingan va reja 76,3 foizga bajarilgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikni tashkil qilish hisobidan yil davomida 1317 ta ish o’rinlari tashkil etilishi lozim bulib amalda 1865 ta ish o’rinlari yanidan tashkil qilindi va belgilangan yillik reja 141,6 foizga bajarilgan.

Uy mexnatini barcha shakillarini tashkil etish va kasanachilikni barcha shakllarini rivojlantirish hisobidan 1003 ta ish o’rni yaratilib, reja 100,7 foizga.

Fermer xo’jaliklarini rivojlantirish hisobidan 373 ta ish o’rinlari yaratilib, reja 124,3 foizga bajarildi .

Kichik biznes su’bektar to’g’risida. 2015 yilning 1-yanvar holatiga jami kichik biznes sub’ektlari soni 2531 tani tashkil qildi, shundan faoliyat ko’rsatayotgan sub’ektlar soni 2068 ta, faoliyat ko’rsatmayotgan sub’ektlar soni 463 tani tashkil qildi. Hisobot davrida 304 ta yuridik maqomga ega bulgan tadbirkorlik sub’ektlari tashkil qilindi va 513 ta tadbirkorlik sub’ektlari faoliyati tugatildi. Kichik biznes su’bektlari tomonidan 32,0 ming AQSh dollari miqdorida maxsulotlar eksport kilingan bo’lsa 4151,1 ming AQSh dollari miqdoridagi maxsulotlar import qilindi.

Kichik biznes sub’ektlarini yangidan tashkil qilish, ular faoliyatini kengaytirish natijasida yil davomida 2675 ta ish o’rinlari tashkil qilindi.

Kichik biznes sub'ektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi quydagicha:

- sanoat maxsulotlari ishlab chiqarishda 27,8 foizni,
- Yalpi qishloq xo'jaligi maxsulotlari ishlab chiqarishda 98,8 foizni,
- qurilish ishlari hajmida 96,6 foizni,
- chakana savdo aylanmasida 52,8 foizni,
- pulli xizmatlar ko'rsatishda 62,4 foizni,
- yuk tashishda 92,0 foizni,
- yo'lovchi tashishda 69,3 foizni va
- xizmatlar ko'rsatishda 73,4 foizni tashkil qildi.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga 40 mlrd. 216 mln. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.

Ajratilgan kredit mablag'larning 15 mlrd.. 128,7 mln. so'mini qisqa muddatli va 25 mlrd. 87,3 mln.. so'm miqdoridagi qismini uzoq muddatli kreditlar tashkil qildi.

Xo'jaliklararo ichki avtomobil yo'llari bo'yicha. Dasturga asosan 8 ta mahalla xududidagi 6.65 km qora qoplamali yo'llarni ta'mirlash belgilangan. Ushbu maqsadda 587,5 mln. so'm byudjet mablag'lari ajratilishi rejalashtirilgan.

Xisobot davrida Kenagas QFY Shaxrinav mahallasida 1,0 km qora qoplamali yo'lni ta'mirlash uchun 81.7 mln. so'mlik ta'mirlash ishlari 100 foizga, Qizil jar QFY Koraxon mahallasida 0,7 km qora qoplamali yo'lni ta'mirlash uchun 53,3 mln. sumlik ta'mirlash ishlari 100 foizga, Pistamozor QFY Tinchlik mahallasida 0,95 km qora qoplamali yo'lni ta'mirlash uchun 60,4 mln. so'mlik ta'mirlash ishlari 100 foizga, Denov QFY Abbos Malik mahallasida 1,0 km qora qoplamali yo'lni ta'mirlash uchun 84,4 mln. so'mlik ta'mirlash ishlari 100 foizga, Xazorbog QFY Chorgul mahallasida 1,0 km qora qoplamali yo'lni ta'mirlash uchun 82,7 mln. so'mlik ta'mirlash ishlari 100 foizga, Anbarsoy QFY Uzgarish mahallasida 1,0 km kora koplamali yulni ta'mirlash uchun 75,2 mln. sumlik ta'mirlash ishlari 100 foizga, Yangiobod KFY Namozgox mahallasida 0,5 km qora qoplamali yo'lni ta'mirlash uchun 43,9 mln. so'm miqdoridagi mablag'lar o'zlashtirilib amalga oshirilishi rejalashtirilgan ta'mirlash ishlari 100 foizga bajarildi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Bitiruv malakaviy ishimizning 2 bob bo'yicha xulosamizda, Surxondaryo viloyati Denov tumanining makroiqtisodiy tahlil ko'rsatkichlari yoritib o'tilgan. Denov tumani viloyatning Sho'rchi, Sariosiyo, Uzun, Oltinsoy tumanlari bilan chegaradosh bo'lib, maydoni 0,75 ming km². Aholisi 253,7 ming kishi (2000). Denov tumanida 1 shahar (Denov), 1 shaharcha (Do'stlik), 18 qishloq fuqarolari yig'ini (Anbarsoy, Binokor, Dahana, Denov, Kenagas, Navro'z, Pistamozor, Sina, Tortuvli, Xayrobod, Xolchayon, Farg'ona, Yurchi, Yangibog', Yangizamon, Yangiobod, Kiziljar, Hazorbog') bor. Markazi - Denov shahri hisoblanadi.

Tumanning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari 2015 yilning yanvar-dekabr oylari davomida tumanda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy isloxatlar natijasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida belgilangan prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan xamda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish suratlari ta'minlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Tumanda 2015 yilning yanvar - dekabr oylarida amaldagi narxlarda 254571.9 mln. so'mlik sanoat maxsuloti ishlab chiqarilib o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirma narxlarda 112.2 foizga o'sishiga erishildi.

Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish xajmi 156972.4 mln. so'mni tashkil qilgan xolda 111.5 foizga o'sdi.

Yalpi qishloq xo'jaligi maxsulotlari ishlab chiqarish hajmi 566922.6 mln. so'mni tashkil qildi va qiyosiy narxlarda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107.7 ga o'sishi ta'minlandi.

Hisobot davrida yirik sanoat korxonalari tomonidan 107,8 mlrd. so'mlik sanoat maxsulotlari ishlab chiqarildi va o'sish surati 107,0 foizni tashkil qildi.


III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITDA FUNKSIONAL BOSHQARUV ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. FunkSIONal boshqaruv organlar faoliyatining samarali boshqarishda tashkiliy tuzilmalarni rivojlantirish usullari


Tashkilot bo‘linmalararo aloqa ko‘rinishiga qarab, tashkiliy tuzilmani quyidagilarga ajratish mumkin: chiziqli, funksional, chiziqli – funksional (shtabli) va matrisali.

Boshqaruvning chiziqli tashkiliy tuzilmasi. Bu boshqaruvning sodda, oddiy boshqaruv tuzilmasi. U shu bilan xarakterlanadiki, har bir tuzilma bo‘linmalari boshida hamma vakolatlarga ega bo‘lgan va o‘ziga bo‘ysinuvchilar uchun yakka xokimlik xislatiga ega bo‘lib, o‘z qo‘lida boshqaruv funksiyasini mujassamlashtira oladigan rahbar – yakkaxokim bo‘ladi.

Chiziqli boshqaruvda har bir zveno va har bir bo‘ysunuvchi bitta rahbarga ega bo‘lib, u orqali yagona kanal orqali boshqaruvning hamma komanda (ko‘rsatma) lari o‘tadi. Ushbu holatda boshqaruvchilik zvenolari rahbar faoliyatining hamma natijalariga javob beradi. Chunki ularning har biri hamma ish ko‘rinishlarini bajarib, mavjud ob’ekt boshqaruviga bog‘liq bo‘lgan qarorlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi. Chiziqli boshqaruv tuzilmasi faoliyatini baholash uchburchak ko‘rinishiga ega. Chiziqli boshqaruv tuzilmasida qarorlar “tepadan pastga” zanjirida yuborilib, boshqaruvning quyi zvenosi rahbari undan yuqori pog‘onadagi rahbarga bo‘ysunadi, shu tufayli o‘ziga xos mavjud tashkilot rahbarlar ierarxiyasi vujudga keladi (masalan, seksiya mudiri, bo‘lim boshlig‘i, magazine direktori yoki uchastka ustasi (masteri), muhandis, sex boshlig‘i, korxona direktori). Shu tarzda yakka xokimlik tamoyili amalga oshiriladi. Uning mazmuni shundan iboratki, bo‘ysunuvchilar faqat bitta rahbar farmoyishini bajarishadi. Boshqaruv yuqori organi bo‘linma boshliqlarisiz ish bajaruvchilarga u yoki bu afmoyish bera olmaydilar, chunki boshqa boshliq “mening” boshlig‘im boshqaruvning chiziqli tuzilmasini quyidagicha ifodalash mumkin.



8-rasm. Natija – uchburchak tamoyili bo'yicha boshqaruvning chiziqli tuzilma sxemasi.¹⁷



9-rasm. Boshqaruv tuzilmasining chiziqli tashkiliy sxemasi¹⁸

Chizmadan ko'rinib turibdiki, boshqaruvning chiziqli tuzilmasida har bir bo'ysunuvchi boshliqqa ega, har bir boshliq esa bir necha yordamchilarga ega. Bunday tuzilma boshqaruvning quyi pog'onasidagi (seksiya, brigada va sh. k) uncha katta bo'lmagan tashkilotlarga oiddir.

¹⁷ Maxkamova M.A., Yuldasheva S.A., Holmatova SH.R., Shmigun O.Menejment.T.:2007 y.

¹⁸ Maxkamova M.A., Yuldasheva S.A., Holmatova SH.R., Shmigun O.Menejment.T.:2007 y.

Tashkilotni boshqarishning chiziqli tizimi ishlab chiqarish belgisi bo'yicha texnologik xususiyatlarga, ishlab chiqariladigan mahsulotlarga qarab mujassamlashtirish darajasini hisobga olgan holda olib boriladi.

Boshqaruvning chiziqli tuzilmasi mantiqan ancha tartibli va rasman aniq, shu bilan birga epchil bo'lib hisoblanadi. Har bir rahbar xokimlikni to'liq egallagan bo'ladi, biroq ular maxsus bilimni talab qiladigan funksional muammolarni hal etishda nisbiylikka ega bo'ladilar.

Boshqaruvning chiziqli tashkiliy tuzilmasi o'z ijobiy va salbiy tomonlariga egadir.


Chiziqli tuzilmadagi jiddi kamchiliklar ma'lum bir darajada funksional tuzilma yordamida tuzatilishi mumkin.

Chiziqli tuzilmadagi kattalashmaguncha samarali harakatda bo'lishi mumkin. Firmaning o'sishi bilan uning menejmentiga maxsus ekspertlarga qaramlik paydo bo'la boshlaydi. Agar ekspertlar ishga tushsa, tuzilma chiziqli – shtabli bo'ladi. Chiziqli rahbarlar bosh maqsadni amalgam oshishida javobgarlikni xis etadilar, shtabli rahbarlar esa, ikkinchi darajali masalalarni xal etishadi. Shtab rahbarlari chiziqli rahbarlarga bo'ysungan holda maslahatchi funksiyani bajaradilar.

Shtab rahbarlariga bo'lgan talab tashkilotdagi funksional murakkabliklarni ko'payishiga olib keladi.

Boshqaruvning chiziqli – funksional (shtabli) tuzilmasi.

Bunday tuzilmadagi boshqaruvda ma'lum bir jamoaga rahbarlik qiluychi chiziqli rahbar hamma javobgarlikni o'ziga oladi. Unga (chiziqli) aniq masalalarni ishlab chiqishda va o'ziga xos qarorlarni, dasturlarni tayyorlashda funksional bo'limlardan iborat bo'lgan (boshqarma, bo'limlar, byuro va sh.k) maxsus apparat yordam beradi. Ushbu holda bo'linmalar funksional tuzilmalari bosh chiziqli rahbarning qaramog'ida bo'ladi. Ular o'z qarorlarini bosh rahbar orqali yoki(o'z vakolati bo'yicha) bevosita ish bajaruvchi bo'limlar rahbarlari orqali amalgam oshiradilar.



10-rasm. Chiziqli – funksional (shtabli) tashkiliy tuzilma sxemasi¹⁹

Shunday qilib, chiziqli funksional tuzilma o‘z tarkibiga chiziqli rahbariyatidagi tashkilot masalalarini bajarishga yordam beruvchi bo‘linmalarni qamrab oladi. Chiziqli funksional tuzilma ham o‘z afzallik va qiyinchiliklariga ham egadir.


4-jadval.

Chiziqli funksional tuzilma ham o‘z afzallik va qiyinchiliklari

Afzalliklar	Kamchiliklar
- ishchilar mutaxassisligi bilan bog‘langan qaror va rejalarni chuqurlashtirilgan holda tayyorlash - bosh chiziqli menejerni muammoni chuqur tahlil qilishdan ozod qilish - 3) maslahatchi va ekspertlardan foydalanish imkoni	- ishlab chiqarish bo‘limlari aro gorizontal pog‘onasidagi quyuq o‘zaro aloqa va o‘zaro harakatlarning yo‘qligi - tayyorlanayotgan qaror, odatda uni joriy etilishida ishtirok etmasligi uchun aniq javobgarlikning yo‘qligi - vertikal bo‘yicha o‘zaro ta’sirning haddan tashqari rivojlangan tizimi jumladan: boshqaruvning ierarxiyasi bo‘yicha bo‘ysunishi ya’ni, haddan tashqari markazlashtirish

Tashkilotni boshqarishning funksional – tashkiliy tuzilmasi. Funksional boshqaruv aniq ishlar ko‘rinishini bajarishga mo‘ljallangan va chiziqli boshqaruv tizimida qaror qabul qilish uchun kerak bo‘lgan bo‘linmalar majmuasi orqali amalgam oshiriladi.

¹⁹ Maxkamova M.A., Yuldasheva S.A., Holmatova SH.R., Shmigun O.Menejment.T.:2007 yil. 89-bet.



11-rasm. Boshqaruvning funktsional tashkiliy tuzilmasi sxemasi.²⁰

Tashkilotda odatda bir xil soxadagi mutaxassislar mutaxassisligi bir bo‘lgan bo‘linmalarga (bo‘limlarga) birlashtiriladi, masalan marketing bo‘limi, rejalashtirish bo‘limi, buxgalteriya va sh.k. shunday qilib, tashkilotni boshqarishning umumiy masalalari o‘rta zvenodan boshlab funktsional mezon bo‘yicha bo‘linadi. Shuning uchun boshqaruvning funktsional tuzilmasi degan nom kelib chiqqan. Funktsional boshqaruv chiziqli boshqaruv bilan yonma-yon bo‘lib ish bajaruvchilar uchun ikki tomonlama bo‘ysunishga olib keladi.

Chizmadan shu narsa ko‘rinib turibdiki, hamma funksiyasini tahlil etib uni bajaradigan universal menejerlar o‘rniga o‘z soxasida katta iqtidorga ega bo‘lgan va ma’lum bir yo‘nalish uchun javob beradigan (masalan, rejalashtirish va istiqbollash) mutaxassislar shtatlari paydo bo‘ladi. Boshqaruv apparatining bunday funktsional ixtisoslashuvi tashkilot faoliyati natijaviyligini ancha oshiradi.


Boshqaruvning chiziqli va funktsional tuzilmasining kamchiliklari chiziqli - funktsional tuzilma orqali tuzatiladi.

²⁰ Azlarova M.M. “Menejment va marketing asoslari”. O‘quv-uslubiy majmua. -T.: TDIU, 2013. -350 b.


Chiziqli va funktsional tuzilmasining afzallik va kamchiliklari

Afzalliklar	Kamchiliklar
- aniq funksiyalarni amalgam oshirishga javob beradigan mutaxassislar iqtidorining yuqoriligi. - chiziqli menejerlarni ayrim maxsus masalalarni hal etishdan ozod etish. - hodisa va jarayonlarni standartlashtirish, rasmiylashtirish va dasturlash - boshqaruvchilik funksiyalarning bajarilishini qaytarilish va paralelligiga yo‘l qo‘ymaslik - keng miqyosdagi mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirish	- “o‘z” bo‘linmalari masalalari va maqsadlarni amalgam oshirishga haddan tashqari qiziquvchanlik. - turli xil funktsional xizmatlar orasidagi doimiy o‘zaro aloqani ushlab turishning murakkabligi. - haddan tashqari markazlashtirilishi - qaror qabul qilishning cho‘zilib ketishi - nisbatan tashkiliy shaklni o‘zgartirish qiyin bo‘lgan turg‘unligidir


Funktsional tuzilma kichik va ayrim firmalarda saqlanib qolgan katta korporatsiyalar bir necha o‘n yil bo‘ldiki divisional tuzilmani qo‘llab kelishmoqda. Ushbu ko‘rinishdagi tuzilmalarda tashkilotlarni bo‘limlarga bo‘lish uchta boshqa belgilar asosida sodir bo‘ladi: mahsulot bo‘yicha, sotib oluvchilar guruhi bo‘yicha va grafik hududlar bo‘yicha. Ushbu bo‘limlar mustaqil tashkilotlar sifatida faoliyat ko‘rsatib faqat korporatsiyani boshqarish markaziy organigagina bo‘ysinadi. Quyida Divizional tashkiliy tuzilma ko‘rinishlarini keltiramiz. (6,8,9-rasmlar).

**12-rasm. Mahsulot tuzilmasi. Bo‘limlar-vitse prezidentlari**

Bo'limlar – vitse prezidentlari



14-rasm. Sotib oluvchi (xaridor)ga mo'ljallangan tuzilma.²¹



15-rasm. Hududiy tashkiliy tuzilma. Vitse - prezidentlar²²

6-jadval.

Divizional tuzilma o'z afzallik va kamchiliklarga ega.²³

Afzalliklar	Kamchiliklar
- Bu firmani o'sishining birdan-bir yo'li - Menejrlarni yuqori darajadagi mustaqilligi ular javobgarligini oshiradi - Menejer bilimining kengligi	- Faoliyatni qaytarilish ehtimoli bor - Turli xil bo'limdagi mutaxassislarining etarli muloqotda bo'lolmasliklari - Bosh tashkilot bilan kuchsiz aloqasi


Boshqaruvning matritsali tuzilmasi ikki xil ko'rinishdagi tuzilmani birlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi, ya'ni chiziqli va dasturiy-maqсадli tuzilmalarni qo'shish evaziga. Dasturiy-maqсадli tuzilma faoliyat ko'rsatayotganda

²¹ Maxkamova M.A., Yuldasheva S.A., Holmatova SH.R., Shmigun O. Menejment.T.:2007 yil. 57-b.

²² O'sha yerda.58-b.

²³ O'sha yerda. 60-b.

boshqaruvchilik ta'siri ma'lum bir maqsadli masalani hal etishga qaratilgan bo'ladi va bu faoliyatda tashkilotning hamma zvenolari ishtirok etadi.



16-rasm. Boshqaruvning matritsali tashkilot tuzilmasi²⁴

Oldindan ma'lum bo'lgan maqsadni amalga oshirishdagi ishlar majmuasi mavjud bo'ysinish ierarxiyasi bo'yicha emas, balki dasturda bayon qilingan maqsadga erishish yo'li bilan bajariladi. Bunda asosiy e'tibor ayrim bo'linmalarni mukammallashtirish uchun emas balki hamma faoliyat ko'rinishlarini integratsiyalash, maqsadli dasturni samarali bajarilishi uchun hamma sharoitni bunyod etish bo'lib hisoblanadi. Bunda dasturlar rahbarlari ishni amalgam oshirish, joriy etish hamda boshqaruv funksiyasini sifatli bajarish, koordinatsiyalash javobgarligini o'z bo'yniga oladi.

Chiziqli tuzilmaga muvofiq (vertikal bo'yicha) tashkilot faoliyatining ayrim sohalari bo'yicha boshqaruv olib boriladi: ITTKU, ishlab chiqarish, ta'minot va sh.k.

Dasturiy-maqsadli tuzilma doirasida (gorizontal bo'yicha) dasturni (loyihalar, mavzular) boshqarish tashkil etiladi.

²⁴ Kadixodjaeva N.R. «Menejment»: O'quv qo'llanma. –Toshkent: TDIU, 2013 yil. 67-b.

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, tashkil topgan chiziqli-funksional tuzilmaga alohida shtab organlari (shaxs va shaxslar guruhi) kiritilib (doimiy yoki vaqtinchalik) shu tuzilmaga xos bo‘lgan vertikal munosabatlarni saqlagan holda konkret dasturlarni (loyihalarni) bajarilishi bo‘yicha mavjud gorizontal aloqalarni koordinatsiya qilinadi. Dasturni amalga oshirishda qatnashuvchi ishchilarning asosiy qismi turli xil masalalar bilan shug‘ullanuvchi eng kamida ikkita rahbarga bo‘ysunadi.

Dasturni boshqarish dastir bo‘yicha hamma aloqani koordinatsiya qilishga javobgarlikni xis etadigan va o‘z vaqtida qo‘yilgan maqsadni amalga oshiradigan maxsus belgilangan rahbarlar ijro etishadi. Bunda yuqori darajadagi rahbarlar joriy masalalar bo‘yicha qaror qabul qilishdan ozod bo‘ladilar. Shuning natijasida o‘rta va quyi pog‘onalarda aniq operatsiya va tartiblarni bajarish uchun javobgarlik ortadi va bu tariqa tashkilotdagi maxsus bo‘linmalar rahbarlari roli va obro‘si ortib boradi. Matritsali tuzilma boshqaruvida dasturlar rahbarlari o‘zlariga bevosita biriktirilmagan mutaxassislar bilan emas chiziqli rahbarlar bilan birga amalga oshiriladi. Chiziqli rahbarlar u yoki bu ishni kim va qanday qilib bajarishini xal etadi. Boshqaruvning matritsali tuzilmasini bunyod etishda qisqa vaqt ichida qator murakkab buyumlarni chiqarishni tashkil etish, texnologik yangiliklarni joriy etish, bozorning raqobatiga tezda e‘tiborni jalb qilish kabi muammolar bo‘lsagina u maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Matritsali tuzilma boshqaruvida dasturlar rahbarlari o‘zlariga bevosita biriktirilmagan mutaxassislar bilan emas chiziqli rahbarlar bilan birga amalga oshiriladi. Chiziqli rahbarlar u yoki bu ishni kim va qanday qilib bajarishini xal etadi. Shuning natijasida o‘rta va quyi pog‘onalarda aniq operatsiya va tartiblarni bajarish uchun javobgarlik ortadi va bu tariqa tashkilotdagi maxsus bo‘linmalar rahbarlari roli va obro‘si ortib boradi.

Matritsali tuzilma ham o'z afzallik va kamchiliklariga ega.²⁵

Afzalliklar	Kamchiliklar
- tashkilotning tez sodir bo'lib turadigan ichki va tashqi muhitga tezda e'tibor berish va moslashish imkoni bor - funktsional tuzilmalar bilan faol o'zaro ta'sirlanuvchi, dasturiy bo'linmalarning shakllanishi hisobiga ma'muriy – boshqaruv ijodiy faolligini oshishi - turli xil ko'rinishdagi mehnat faoliyatini ixtisoslashtirish evaziga kadrlardan ratsional foydalanish - boshqaruvni markazlashtirish va rahbarlikning demokratik tamoyillarini kuchaytirish hisobiga faoliyat motivatsiyasini ko'paytirish - loyiha ayrim masalalari bo'yicha nazoratni kuchaytirish - ayrim huquqlarni vakillarga uzatish hisobiga yuqori pog'onadagi rahbarga bo'lgan yuklanishni qisqartirish - dastir va uning tarkibiy elementlarini bajarishdagi shaxsiy javobgarlikni oshirish	- topshiriqlarni belgilashda va ularni bajarish uchun ajratiladigan vaqtni taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarishda paydo bo'ladigan muammolarni kelib chiqishiga olib keluvchi bir-biriga bo'ysunishdagi tuzilmali murakkabliklar - dastur rahbarlari orasidagi nosog'lom "ruh"ning ishtirok etishi - maqsadlar bilan bog'liq vazifalarni boshqarishdagi kuchlar "nisbati"ni doimiy nazorat qilish kerakligi - yangi dastur bo'yicha ishlash uchun kerak bo'lgan tajribani orttirishdagi qiyinchilik

3.2. Boshqaruv organlari faoliyatida tashkiliy tuzilmalarni loyixalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari

Bozor iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda korxona va tashkilotlarning daromad olishga bo'lgan imkoniyatlari bir tomondan kamayib ketsa, ikkinchi tomondan ortishi mumkin. Bunda esa asosiy omil sifatida tanlangan tashkiliy tuzilma maydonga chiqadi. Shuning uchun ham, ikki imkoniyatdan birini tanlash va unga erishish rahbar-menejerdan mahorat va uddaburonlikni talab


²⁵ Kadirxodjaeva N.R. «Menejment»: O'quv qo'llanma. –Toshkent: TDIU, 2013 yil. 55-b.

qiladi.

Boshqaruvning tashkiliy strukturalarini tashkil qilish ishlab chiqarishni tashkil qilish va tipiga eng yaxshi mos keluvchi boshqaruv apparatini yaratishdan va bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruvning har bir zvenosining ishlab chiqarish-texnik, xo'jalik ijtimoiy va moliyaviy faoliyatini boshqarish bo'yicha hamma funksiyalarni bajarilishining zaruriyatidan kelib chiqadi. Bu muammolarning yechimi boshqaruvni isloh qilish boshqaruv ishlari va funksiyalarini ratsional taqsimlash boshqaruvning aniq maqsad va vazifalarini belgilash bo'yicha bir qator tadbirlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Maqsad boshqaruv nazariyasining asosiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Boshqaruv maqsadlarini shakllantirish boshqaruvning boshlang'ich, unga erishish esa yakuniy bosqich hisoblanadi. Boshqarish maqsadi boshqaruv ob'ekti va uning aloxida parametrlarining istalgan holatidir. Aniq bir korxona uchun boshqaruv maqsadi aniq bir mahsulot turini eng kam resurslar xarajatini sarflagan holda kerakli miqdorda va yuqori sifatda chiqarishdan iborat.

Maqsadli yondashuv boshqaruv organlari ishining kollektiv oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishga bo'ysunishni talab qiladi. Boshqaruvning har bir tagtizimi o'zining maqsadlari (tashkiliy, iqtisodiy, marketing, texnik, ijtimoiy)ga ega, shuning uchun maqsadlarning mos kelishi muammosi yo'zaga keldi. Boshqaruvning har xil darajalari umumiy maqsadga javob berishlari, bir-birini to'ldirib turishi zarur. Maqsadlarni tartiblashni usullaridan biri maqsadlar daraxtini tuzish hisoblanadi. Quyida maqsadlar va ularga erishish vositalari o'rtasidagi aloqalarning grafik tasviri ni ko'rishimiz mumkin bo'ladi.



17-rasm. Maqsadlar va ularga erishish vositalari o'rtasidagi aloqalar²⁶

Umumiy maqsadga erishish uchun asosiy maqsadga erishish kerak, asosiy maqsadga erishish uchun esa, birinchi darajaning maqsadiga erishish kerak va x.k.

Davlat masalalarini bajarishning maqsadi aniqlovchi hisoblanadi, u ilmiy texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa maqsadlar bilan uzviy bog'liq. Maqsadli yondashuv boshqaruvning zamonaviy strukturasi o'tishga imkon beradi.

²⁶ Kadirxodjaeva N.R., Ashrapova I.K. «Menejment»: O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDIU, 2010 yil, 57-bet

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Uchinchi bob bo'yicha shuni ta'kidlash mumkinki, bozor iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda korxona va tashkilotlarning daromad olishga bo'lgan imkoniyatlari bir tomondan kamayib ketsa, ikkinchi tomondan ortishi mumkin. Bunda esa asosiy omil sifatida tanlangan tashkiliy tuzilma maydonga chiqadi. Shuning uchun ham, ikki imkoniyatdan birini tanlash va unga erishish rahbar-menejerdan mahorat va uddaburonlikni talab qiladi.

Boshqaruvning tashkiliy strukturalarini tashkil qilish ishlab chiqarishni tashkil qilish va tipiga eng yaxshi mos keluvchi boshqaruv apparatini yaratishdan va bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruvning har bir zvenosining ishlab chiqarish-texnik, xo'jalik ijtimoiy va moliyaviy faoliyatini boshqarish bo'yicha hamma funksiyalarni bajarilishining zaruriyatidan kelib chiqadi. Bu muammolarning yechimi boshqaruvni isloh qilish boshqaruv ishlari va funksiyalarini ratsional taqsimlash boshqaruvning aniq maqsad va vazifalarini belgilash bo'yicha bir qator tadbirlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Umumiy maqsadga erishish uchun asosiy maqsadga erishish kerak, asosiy maqsadga erishish uchun esa, birinchi darajaning maqsadiga erishish kerak va x.k.

Davlat masalalarini bajarishning maqsadi aniqlovchi hisoblanadi, u ilmiy texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa maqsadlar bilan uzviy bog'liq. Maqsadli yondashuv boshqaruvning zamonaviy strukturasiga o'tishga imkon beradi.

XULOSA

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Bunda davlat bosh-qaruvi tizimini tubdan isloh qilish va mazkur tizimning asosi – demokratik rivojlanish printsiplari aniqlik kiritish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, erkin fuqarolik jamiyatini qaror toptirish xalqimizning ulug'vor maqsadlaridan biri sifatida belgilab qo'yildi. Chunki "Fuqarolik jamiyati fuqaro va uning erkinliklaridan boshlanadi". Shuning uchun mamlakatimizda shakllantirilayotgan jamiyat – demokratiya va adolat printsiplariga tayanuvchi erkin insonlar jamiyati bo'lmog'i lozim. Bunda davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish ko'zda tutiladi. Albatta, fuqarolik jamiyatini qurish bosqichma-bosqich, murakkab va uzoq davom etadigan jarayon.

Shu o'rinda demokratiya mohiyatiga jiddiy yondashadigan bo'lsak, siyosiy tizim nafaqat fuqarolar xohish-irodasini hisobga olishi yoki saylovlarga asoslangan mexanizm bilan cheklanishi, balki jamiyatda bunday davlat boshqaruvining tegishli institutlari ham bo'lishini taqozo etadi. Bunday institutlarning mavjud bo'lishi esa o'sha fuqarolar yashaydigan hududda:

- inson huquq va erkinliklarini to'la amalga oshirishda to'sqinliklar yoki tazyiq o'tkazuvchi har qanday ichki va tashqi xavfdan davlat tomonidan himoya qilinishi;

- demokratiyaning muhim elementlari hisoblangan inson huquq va erkinliklari boshqa shaxslar, jamiyat yoki davlatning manfaatlariga zid ravishda amalga oshirilishini muayyan normalar orqali chegaralovchi qonun-qoidalar davlat tomonidan rasmiy ravishda qabul qilinishi, ularning ijrosi va nazoratini ta'minlashi lozim.

Har qanday demokratik jamiyatda bunday qoidalar Konstitutsiyada mustahkamlanadi va boshqa qonunlarga nisbatan oliy yuridik kuchga ega bo'ladi. Chunonchi, O'zbekistonning Asosiy qonunida umumxalq tomonidan saylangan va qo'llab-quvvatlangan davlat hokimiyatining fuqarolar oldidagi asosiy

majburiyatlari, faoliyat chegaralari, ish olib borish jarayoni uning konstitutsiyaviy printsiplari, inson huquqlari va qonun oldida barchaning tengligi bilan mustahkamlangan. Zero, Konstitutsiyaning 2-moddasida belgilanganidek: "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar".

Hokimiyat vakillari, demokratik yo'l bilan saylangan bo'lsalarda, davlatni o'zlarining tor guruhdagi manfaatlari nuqtai nazaridan boshqarmasliklari lozim. Bizning nazarimizda, ozchilikning davlat hokimiyati institutlari orqali boshqaruvi – demokratiya emas. Shu bois, islohotlarning hozirgi bosqichidagi asosiy vazifa davlat boshqaruvi institutlarini takomillashtirish, ya'ni ko'pchilikning hokimiyatni boshqarishda ishtiroki mexanizmini yaratishdan iborat.

Ma'lumki, demokratik boshqaruvning eng muhim jihatlari "huquqiy davlat" tushunchasida mujassamlashgan. U davlat suvereniteti, qonun ustuvorligi, hokimiyatning bo'linishi, shaxs huquq va erkinliklarining ta'minlanishi kabi printsiplar asosiga quriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 fevraldagi "2014-2016 yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish to'g'risida"gi PQ-2120-sonli hamda 2015 yil 11 fevraldagi "2015-2019 yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish to'g'risida"gi PQ-2298-sonli qarorlariga hudud tasarrufidagi "The best oil is south oil" ma'suliyati cheklangan jamiyati tomonidan yengil va yuk avtomobillarga motor moylari ishlab chiqarish loyihalari kiritilgan.

Bugungi kunda tashabbuskor tomonidan chet eldan olib kelinishi lozim bo'lgan xom-ashyoga mablag' konvertatsiya qilinmaganligi sababli Gollandiya davlatidan 34,4 ming dollarga xom-ashyo olib kelish bo'yicha shartnomalar yangidan imzolandi hamda "Savdogarbank"dan 260,0 mln.so'm miqdorida kredit so'rab ariza bilan murojaat qilindi. Ajratiladigan 260,0 mln.so'm bank kredit

mablag'ininig 34,4 ming doll. ekvivalentidagi kredit mablag' konvertatsiya qilinishi lozim .

Korxona taklifi qo'llab quvatlarga holda tuman hokimligi tomonidan motor moyi ishlab chiqarishni kengaytirish va avtomobillar uchun antifriz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun tashabbuskorga 0,50 ga yer maydoni ajratib berildi.

Xulosalardan kelib chiqqan holda Surxondaryo viloyati Denov tumani hokimligining funksional boshqaruvini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi:

1. Mamlakatimizni demokratlashtirish va modernizatsiya qilish borasida boshlangan tizimli islohotlarni, iqtisodiyotimizda, avvalambor, sanoat va qishloq xo'jaligida tub tarkibiy o'zgarishlarni so'zsiz davom ettirish, xususiy mulk, tadbirkorlik va kichik biznesni jadal rivojlantirish va bu soha vakillari manfaatlarini himoya qilish, makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash.

2. 2015-2019 yillarda muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va rivojlantirish dasturining asosiy qoida va yo'nalishlarini so'zsiz bajarish bo'yicha boshlangan ishlarni 2016 yilda ham davom ettirish

3. Qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish

4. Iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini tubdan oshirish, eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, fermer xo'jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksport faoliyatidagi ishtirokini har tomonlama rag'batlantirish.

5. Iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, «Elektron hukumat» tizimi faoliyatini yanada rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasining qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi– T.: “O'zbekiston”, 2014 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.:Adolat, 2007 y.
3. O'zbekiston Respublikasining “Xususiy korxonalar to'g'risidagi” qonuni, qonun va qarorlar . T.: “O'zbekiston”., 2004.,№3.
4. O'zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida”gi Qonuni. “Xalq so'zi” gazetasi, 2012 yil 27 apreldagi № 82(5502)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, 2003 yil 30-avgust.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori «Kichik va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami, 2010 yil.,5-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.01.2009 yildagi 1045-sonli Inqirozga qarshi dastur va boshqa qo'shimcha choralar to'g'risida”gi 2008 yil 5 apreldagi Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari to'g'risida»gi 2010-yil 15-dekabrdagi PQ-1442 sonli qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 dekabrda “O'zbekiston Respublikasining 2011 yilga mo'ljallangan investision dasturi to'g'risida”gi 1455-sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 27 dekabrda “O'zbekiston Respublikasining 2012 yilga mo'ljallangan investision dasturi to'g'risida”gi 1668-sonli Qarori.

11. “O‘zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. – Toshkent, “Xalq so‘zi” gazetasi, 18 aprel 2006 yil.

12. «O‘zbekiston Respublikasida 2012-2016 yillarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish dasturi» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. – 2012 yil 10-may, PQ-1754 son.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Umumiy ovqatlanish tashkilotlarining faoliyatini yanada takomillashtirish va xodimlarining kasbiy darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. – Toshkent. 2012 yil 10 oktyabr, 289-son.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4354-sonli Farmoni. // Xalq so‘zi, 2011 yil 26 avgust.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 8 maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 6 apreldagi “Aholi ish bilan bandligini oshirish hamda mehnat va aholi ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ_616 sonli qarorini amalga oshirish chora tadbirlari haqida 95-sonli qarori.

16. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi, 2010 yil 30 yanvar.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. 2016 yil 18 yanvar. "Xalq so'zi" gazetasi.

19. Karimov I.A. "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz". T: O'zbekiston, 2000, 17 bet.

20. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.

21. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash - bizning oliy maqsadimiz. 17- Jild. – T.: O'zbekiston, NMIU 2009. – 280 bet.

22. Karimov I.A. "Jahon inqirozining oqibatlarini yengish mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari". 18- Jild. – T.: O'zbekiston, NMIU 2010. – 198 bet.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar.

1. Abdurahmonov Q.X. "Mehnat iqtisodiyoti" (nazariya va amaliyot). – Toshkent: "Mehnat", 2009 yil.

2. Maxmudov E.X. "Korxona iqtisodiyoti", O'quv qo'llanma.– T.:O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004 yil.

3. H.Rahimova va boshqalar. Mehnatni muhofaza qilish. – T.: «O'zbekiston», 2003. - 216 b.

4. Генкин Б.М. «Экономика и социология труда» М.: Норма, 2007

5. Волгин Н.А. Экономика труда: рыночные и социальные аспекты. Учебно методический комплекс для подготовки магистров –М.: Изд-во РАГС,2010

6. Shodmonov.Sh.Sh, G'afurov U.V. "Iqtisodiyot nazariyasi" T: Fan va texnologiya, 2005 yil, 578-582 betlar.

7. Котлер Ф., Маркетинг: Гостеприимство и туризм: Учебник для вузов/ Ф. Котлер, Дж. Боуэн, Дж. Мейкенз. Пер. с англ. под ред. Р. Б. Ноздревой. - М.: ЮНИТИ, 1998.
8. Котлер, Ф. Маркетинг Менеджмент / Ф. Котлер - СПб: Питер, 2002.
9. Кулибанова В.В. Маркетинг: сервисная деятельность Учебное пособие. - СПб.:Питер, 2000.
10. Кулибанова, В.В. Маркетинг сервисных услуг / В.В. Кулибанова. – СПб.: Вектор, 2006. – 196 с.
11. Лавлок, К. Маркетинг услуг: персонал, технология, стратегия / К. Лавлок. – М.: Изд. дом «Вильямс», 2005. – 1008 с.

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. – T.: “O'zbekiston”, 2011.yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati Denov tumani 2015 yil yakunlari bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlarining ma'lumot va tahlillari. Denov t. 2016 yil.

IV. Internet saytlari.

1. www.gov.uz O'zbekiston Respublikasi hukumat portali sayti
2. www.uza.uz O'zbekiston Respublikasi axborot agentligi sayti
3. <http://www.cer.uz> «Экономическое обозрение» jurnalining sayti
4. <http://www.google.co.uz> “Ma'lumotlar qidiruv sayti”
5. <http://www.uza.uz> “O'zbekiston axborot agentligi” sayti
6. <http://www.stat.uz> Davlat Statistika qo'mitasining sayti